

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti

FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

IV bosqich "B" guruh talabasi
N.Dadaboyevaning
TILDA INKOR KATEGORIYASINING AKS ETISHI

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.d.,prof.Sh.H.Shahobiddinova

ANDIJON - 2012

“Ҳимояга тавсия этаман” -

илмий раҳбар, ф.ф.д., проф
Ш.Ҳ.Шаҳобиддинова

“ ____ ” июнь 2012 й.

“Ҳимояга рухсат бераман” -

кафедра
муриди, ф.ф.д.
Д.Набиева

“ ____ ” июнь 2012 й.

“Ҳимояга тавсия этаман” -

расмий тақризчи АДУ
қошидаги 3-АЛ ўқитувчиси
Н.Худойбердиева

“ ____ ” июнь 2012 й.

“Ҳимояга тавсия этаман” -

факультет декани,
ф.ф.н., доц.
З.Қодиров

“ ____ ” июнь 2012 й.

TILDA INKOR KATEGORIYASINING AKS ETISHI

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	2
Birinchi bob.Inkor kategoriyasining semantik va pragmatik mohiyati...5	
1.1. Inkor umumlingvistik kategoriya sifatida.....	5
1.2. Inkorning semantik turlari va stilistik xususiyatlari.....	7
Ikkinchi bob. Inkor vositalarining ishlatilish darajasiga ko'ra turlari....	28
2.1. Tillarning polinegativ va mononegativ strukturasi.....	28
2.2. Mononegativ tillardan polinegativ tillarga va aksincha polinegativ tillardan mononegativ tillarga tarjima qilishning lingvistik asoslari.....	43
XULOSA.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	51

Ishning umumiy tavsifi

O'zbekiston davlat mustaqilligi mamlakat va xalqimiz hayotida tub sifat o'zgarishlari davrini boshlab berdi. Xalq xo'jaligi uchun etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligi tufayli, ilmiy salohiyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Mustaqillik sababli o'zbek va xorijiy tillarga e'tibor nihoyatda kuchaydi. «Ta'lim haqida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» da ham tilga bo'lgan e'tiborning yuqori darajada ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'z oldiga tillarda polinegativlik va mononegativlik muammosi tadqiqini qo'ygan mazkur ish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi.

Mazkur ish funkstional yo'nalishda bo'lib, o'zbek tilida inkor muammosini o'rganishga bag'ishlangan. Inkor - kategorial tipologik tushuncha birligi sifatida turli tizimli tillar ifoda planlarida bir ko'rsatkichli va ko'p ko'rsatkichli inkor belgilari orqali namoyon bo'ladi. Tillardagi bir inkorli va ko'p inkorli ifoda shakllari ularning ichki me'yori talablari va odatlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu masala alohida echimini topmagan dolzarb muammolardan biridir. Lingvistik tipologiya planida bir inkorlik va ko'p inkorlik muammosi tadqiqining murakkabligi, bir tomondan, ushbu masalaning dolzarbligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, unga nisbatan maxsus tipologik yondashuvni taqozo etadi. Jahon tilshunosligida inkor kategoriyasi ko'p tahlil qilingan bo'lsa-da, inkor kategoriyasini o'zbek tilshunosligi nuqtai nazaridan tadqiq etish hamda uning umumlisoniy mohiyatini ochish dolzarb masalalardan biridir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Inkor kategoriyasi doimo tilshunos olimlarning diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Inkor kategoriyasini o'rganishda hind-evropa va turkiy tillar manbalari asosida izlanishlar olib borgan bir qator tilshunoslarning (I.A. Alyamskaya, V.F. Andreeva, M.V. Andreychikova, N.A. Bulax, S.A. Vasileva, K.V. Gabuchan, M.N. Jukenova, V.N. Zenchuk, A.F. Kulagin, L.F. Kumanichkina, N.A. Lavrov, V.S. Shemerova, E.I. Shendels, L.P. Shipulina) xizmatlari katta.

Inkorning turli ko'rinishlari o'z holicha mustaqil ilmiy izlanishlarning mavzulari bo'lishiga qaramasdan, o'zbek tilshunosligida etarli darajada o'rganilmagan.

O'zbek tilshunosligida ko'plab olimlar (A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov, E. Qilichev) inkor formasidagi gap ekspressiv tasdiq ma'no ottenkasini ifodalashi va uni oddiy tasdiqdan farq qilishiga oid ma'lumotlarni bergan.

Mazkur masalaga bu qadar jiddiy e'tibor berilishi tekshirish ob'ektining o'ta murakkab va keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi.

BMI maqsadi. BMI uchun tanlangan mavzu o'z oldiga o'zbek tilidagi inkor hodisasini o'rganishni, ushbu hodisalarni shakllantiruvchi til omillarini ochib berishni va, nihoyat, shu hodisalar asosida til ifoda vositalari va tipini aniqlashni maqsad qilib qo'yadi.

BMIning vazifalari. BMI vazifasini mononegativlik va polinegativlik hodisalarini strukturaviy, kognitiv, funkstional planlarda o'rganish tashkil etadi.

BMI ob'ekti. Mononegativlik va polinegativlik inkor ifoda vositalarining ko'rinishlarini aks ettirib, ushbu hodisalar BMI ob'ekti sifatida ajratiladi.

BMI predmetini polinegativ va mononegativ hodisalarining ifoda va mazmun plani aloqasini kuzatuvdan o'tkazish tashkil etadi.

BMIning metodologik asosi va tadqiq usullari. Ushbu BMI ishida dialektik falsafa metodologik asos sifatida qo'llanildi. BMI jarayonida tasniflash, ziddiyatga qo'yish, induktiv va deduktiv, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik usullaridan foydalanildi.

BMIning ilmiy yangiligi:

- Inkori kategoriyasining pragmatik va semantik xususiyatlari funkstional tipologik jihatdan ochib berildi.
- Inkorning implistit, eksplastit, kombinastiyalashgan va kombinastiyalashmagan, diktum va modusga asoslangan turlari ajratildi.
- Inkori kategoriyasining tizimli, strukturaviy, me'yoriy jihatlarini shakllantiruvchi til omillari yordamida polinegativ va mononegativ til tipi aniqlandi.
- Umumiy yoki fe'l va xususiy inkorning turli tizimli tillarda ifodalanishining lingvistik mohiyati tavsiflandi.
- Inkorning leksik, grammatik, stilistik xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'lindi.
- Parallel qiyos, transformastion tarjima orqali inkor vositalarining bir tildan ikkinchi tilga o'girilishidagi formal va semantik tomonlar belgilandi.

BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati.

BMI materiallari nazariy va amaliy maqsadlar uchun ham xizmat qiladi. Ularga suyanganda holda sintaktik, yaruslararo sinonimiyalar amaliy kursini yaratish mumkin. BMI materiallari umumiy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, nazariy grammatika, stilistika, matn tahlili, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlari ta'limida amaliy tatbig'ini topishi shubhasiz.

BMIning tuzilishi va hajmi. BMI tuzilishiga ko'ra kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda badiiy manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi ... sahifani tashkil etadi.

Birinchi bob. Inkor kategoriyasining semantik va pragmatik mohiyati

1.1. Inkor umumlingvistik kategoriya sifatida

Inkor kategoriyasi qadimiy tushunchalar qatoriga kiradi, chunki insoniyat yaratilibdiki, unga xizmat qilayotgan til vositalari va ular orqali o'z ifodasini topayotgan lingvistik kategoriyalar ham o'sha xalqning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. So'nggi yillarda til nazariyotchilari u yoki bu tildagi mavjud til birliklarining bajarayotgan vazifalariga ko'ra ularning mohiyatini aniqlashni lingvistikaning kun tartibiga qo'yishmoqda. Bu, albatta, ma'lum tilning bajarayotgan vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Agar biz buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning "Til so'zlovchining tilagini tinglovchiga etkazuvchi tarjimondir" degan purma'no ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy tilshunoslikning pragmatik lingvistika deb atalmish sohasiga bizning bobokalonimiz asos solganiga shubha qolmaydi. Darhaqiqat, har bir so'zlovchidan tinglovchiga qarab ketayotgan axborot va har bir kalima ma'lum vaziyatda, ma'lum bir vaqtda va, albatta, makonda sodir bo'lishi barchaga ma'lum. Ammo tildagi tayyor birliklarning ma'lum maqsadlarning ifodasi sifatida ishlata bilish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Shuning uchun ham muloqot paytida insonlarning bir-birini tushunmasligi ana shu birliklarni to'g'ri ishlata bilmasligida deb qarash mumkin.

Pragmatik lingvistika masalalari bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik olimlarning fikricha, til birliklaridan unumli foydalanish, vaziyatni tanlay bilish, kim bilan kommunikastiyaga chiqayotganlikni e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, inkor kategoriyasining mohiyatini aniqlash va, umuman, bu kategoriya muloqot jarayonida nima uchun kerakligini tushunish masalaning bahstalab tomonlarini yoritishda izlanuvchi uchun keng istiqbol ochib berishi mumkin. Chunki har yaxshining ammosi, har yomonning lekini, muhabbatning qahri, umuman olganda, har bir narsaning shu kabi fazilatlari yonma-yon bo'lganidek, tasdiqning ham inkori bo'lishi, shubhasiz, tabiiy bir holdir.

Har qanday voqelik yoki xabarning tasdig'i bo'lganidek, uning qarama-qarshi tomoni, boshqacha qilib aytganda, inkori ham, shubhasiz, o'zini namoyon qiladi. Bu ikki qarama-qarshi nuqtada turuvchi tushunchalar fan taraqqiyoti davomida turli sohalarning, shu jumladan falsafa, mantiq, psixologiya'ning o'rganish manbai bo'lib kelgan. To'g'ri, tasdiq va inkor kategoriyalari ko'p qirrali bo'lib, turli fanlar chorrahasiga joylashgan universal, umumlisoniy kategoriyalar toifasiga kiradi va u zamonaviy nazariy tilshunoslikda o'rganilishi eng muhim bo'lgan umumlingvistik kategoriya hisoblanadi, lekin har bir fan bu sermuammo masalani o'z maqsadi nuqtai nazaridan turib tahlil etadi.

Tilshunoslik tarixida tasdiq va inkor, bo'lishlilik va bo'lishsizlik kategoriyalari to'g'risida turlicha nazariyalar mavjud bo'lgan. Ammo masalaning asl mohiyati, ya'ni uning lingvistik

voqelik ekanligi va ifoda vositalarining ma'lum tizimga tushgan majmuasi bo'lmasa, uni kategoriya sifatida tan olinib, tahlil talab tomonlari to'g'risida bahs yuritishning hojati ham bo'lmas edi.

Biz yuqorida inkorni universal, ya'ni jahon tillarining barchasida mavjud bo'lgan voqelik deb fikr yuritdik. Darhaqiqat, inkor universal lingvistik kategoriya sifatida barcha tillarning grammatik qurilishida o'z aksini topgan bo'lsa-da, lekin uni ifodalovchi til vositalari universallikka da'vo qilmaydilar. Chunki dunyodagi har bir til o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida ishlab chiqqan vositalar majmui orqali inkorning turli ko'rinishlarini ifoda etadilar. Inkorning ko'rinishlari esa lingvistik adabiyotlarning shohidlik berishicha, turlichadir. Umuman, jahon tillarida lingvistik, aniqrog'i, grammatik ma'nolarni ifodalashda hamma vositalardan yoki usullardan teng foydalana olmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir til qandaydir lingvistik tushunchani ifoda etishda sintaktik yarus birliklariga murojaat etsa, boshqasi leksik yoki morfologik yarus birliklari orqali ifoda etiladi.


Aslida lingvistik tushunchalarni qanday usul bilan ifodalanishi til toifasiga ham bog'liq bo'ladi. Jumladan, biz tadqiq etayotgan inkor kategoriyasi hind-evropa tillarining aksariyatida sintaktik voqelik deb tan olingan bo'lsa, bu hodisani turkiy tillarga nisbatan ayta olmaymiz. Chunki turkiy tillarda bu kategoriya aksariyat hollarda morfologik yarus birliklari orqali o'z ifodasini topadi.

1.2. Inkorning semantik turlari va stilistik xususiyatlari

Inkorning turli ko'rinishlarini tasnif qilish hozirgi davr tilshunoslari e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Shunga qaramay ayrim tilshunoslarda yuqorida e'tirof etilgan fikrlardan kelib chiqib, jahon tillarida inkor kategoriyasining semantik turlarini tasniflaydi.

jadval

Inkorning semantik turlari



inkori

inkori

Miqdoriy
inkor

Boshqa (maxsus leksik)
inkor

Inkorning turlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ularning tartibiy joylashishi quyidagichadir:

- 1) mutlaq inkor;
- 2) gap inkori;
- 3) miqdoriy inkor;
- 4) maxsus leksik inkor;
- 5) yarim inkor;
- 6) shaklan bo'lishli, ammo mazmunan bo'lishsiz inkor;
- 7) so'z inkori;
- 8) sintaktik inkor.

Inkorning ifoda vositalari boshqa grammatik kategoriyalarning markerlari kabi lingvistik tahlilning turli sathida kuzatiladi. Jahon tillarida, jumladan, biz tadqiq etayotgan ingliz tilida ular quyidagi lingvistik vositalarni qamrab olgan:

1. Inkor so'zlar:
 - a) sodda - **yo'q**
 - b) qo'shma - **hech qachon, hech narsa, hech bir**;
2. Inkor yuklama - **na** doimo maxsus shaxsli forma bilan qo'shilib keladi.
3. Inkor affikslar:
 - a) prefikslar: **no-**, **be-**;
 - b) suffikslar: - **ma**.

Boshqa belgi va signallarga **sal-pal** va **zo'rg`a** (yarim inkor) ni kiritish mumkin. Bu so'zlar ishtirok etgan gaplar bo'lishli tuzilishga, ya'ni ma'noga ega bo'lsa-da, lekin uning zamirida qisman inkor ma'no yotadi.

Ushbu «**Men uni zo'rg`a taniyman**»ning transformasion muqobili «**Men uni yaxshi tanimayman**», ya'ni «**Men tanimoqchi bo'lgan shaxsni to'liq ko'z o'ngimda ifoda eta olmayman**» kabi tanlanadi.

Mutlaq inkorni ifodalovchi hind-evropa tillaridagi «**no**» hamda tasdiq ifodalovchi «**yes**» va ularning boshqa dunyo tillaridagi, jumladan turkiy tillardagi «**ha**» va «**yo'q**» ekvivalentlari ko'pchilik tilshunoslik nazariyotchilari tomonidan funkstional so'zlarning maxsus guruhiga

kiritiladi (Charlz Friz va boshqalar, o'zbek tilida esa gap - so'z toifali til vositalari qatoriga kiritiladi).

Hind-evropa tillarining ko'pchiligida berilgan savolga «**yes**» yoki «**no**» javobining tanlanishi nutqiy vaziyatning qaysi qarama-qarshi nuqtada turganligi bilan aniqlanadi. Agar nutqiy vaziyat ijobiy bo'lsa, javob «**yes**» bilan, nutqiy vaziyat ijobiy bo'lmasa, javob «**no**» bilan belgilanadi.

Xuddi mana shu nutqiy vaziyatning bo'lishsizligi bilan bog'liq bo'lgan savolga javob berishda "**no**" inkorining ishlatilishi ko'p hollarda chalkashlikka olib keladi. Inglizlar o'zlarining grammatik qonuniyatlariga bo'ysungan holda xorijda umrguzaronlik qilishayotganda ana shunday chalkashliklar kelib chiqadi. Chunki inglizlarning inkor vositalaridan foydalanganliklaridagi qoidalar boshqa yurtlardagi muloqotga asoslangan tizimga to'g'ri kelmas ekan. Shuning uchun ham inglizlar "**Never use a negative question when addressing a foreigner**" (Ajnabiylar bilan muloqotga kirishayotganingizda hech qachon inkor so'roqdan foydalanmang!) deyishadi.

Inkorni ifodalovchi vositalarning ikkinchi yirik guruhi, bu miqdoriy inkordir. Garchi inkorning bu turini o'zida aks ettirgan gaplar ma'no jihatdan fe'l inkorga ekvivalent bo'lsa ham, ular forma nuqtai nazardan bo'lishsiz gaplar hisoblanmaydi. Albatta bu erda bunday gaplarning ikki xil tasnif asoslari bir-biridan farq qilishi kerak. Birinchidan, formal asosga ko'ra yo bo'lishsiz yoki bo'lishli bo'ladi. Bunday gaplar bo'lishsiz va bo'lishli mazmunni kashf etish uchun maxsus shaxsli fe'l formasiga ega bo'lishi ham, ega bo'lmasligi ham mumkin. Ikkinchidan, funkstional va semantik asosga ko'ra inkorning bu turi yo tasdiqni yoki ma'lum bir fakti inkor etadi. Xuddi shunday holatni ingliz tilida quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin. Masalaning qiziq tomoni shundaki, ikkita oddiygina markerlangan gaplar (ikkinchi va uchinchi misollar) bitta narsani ifoda etadi.

Hind-evropa tillaridagi, jumladan, ingliz tilidagi inkorning ifoda vositalari tizimi boshqa dunyo tillaridagi tizimdan tubdan farq qiladi, chunki bu kategoriya'ni ifoda etuvchi til birliklarining imkoniyatlari ko'lami kengdir.

Inkorning semantik turlaridan hisoblanmish sintaktik inkor to'g'risida gap borganda, ayrim tilshunos olimlar dunyo tillarining aksariyatida uchraydigan inkorning bu turi haqida turli fikrlarni bildiradilar. Jumladan, Yu.S. Stepanov rus tili manbalari asosida sintaktik inkorning ko'rinishi haqida fikrlarini aytadi va inkorni qabul qiluvchi va qilmaydigan sintaktik qurilmalarning uch toifasini taklif qiladi.

Bu uch toifa ko'rinishlar «**Propozitional vazifa**» deb ataluvchi tushuncha asosida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, rus tili sintaksisining ma'lum bir ko'rinishi uchta toifa qurilmadan iborat bo'ladi. Ularning birinchisi umuman inkor vositasini

qabul qilmaydigan qurilma, masalan, **Nu i xarakter!** hisoblanib [Stepanov, 1975, 261], ikkinchisi inkor elementini qabul qilishi va qabul qilmasligi mumkin.

Masalan: **Uchenik chitaet → Uchenik ne chitaet → Ne uchenik chitaet.**

Uchinchi toifa qurilmada esa sintaktik inkor o'sha gapning mutlaq komponenti bo'lib, bunda gap ma'nosi buziladi va bu konstrukstiyalarning rus tilidagi turi 13 tagacha etadi.

Masalan: **Nekuda poyti: Biletov ne dostat: Ni ogonka: Segodnya ne usnut.** Yuqorida zikr etilgan inkor qurilmalarning «**Propozistional vazifa**» nuqtai nazardan quyidagi ko'rinishlari mavjud :

A. 13 ta toifadan sintaktik jihatdan chegaralanmagani 7 ta:

1. **Net + rod. padej** (Net pokoya);
2. **Nichego + rod. padej prilagatel'nogo** (Nichego novogo);
3. **Ni + mestoimeniya + soglasovannoe sushchestvitel'noe v roditel'nom padeje** (Nikakix problem);
4. **Ne do + rod. padej** (Ne do teatra);
5. **Ne + infinitiv (+je)** (Ne nochevat je!);
6. **Ne + infinitiv sovershennogo vida** (Ne proexat);
7. **Ne + strad. prichastie na - o + rod. padej** (Ne poslano pisma).

B. Ma'no jihatdan 13 ta toifadan 6 tasi chegaralangan bo'lib, ular o'z navbatida 2 ga bo'linadi:

a) 4 ta leksik chegaralanmagan:

1. **Im. padej + ne v + vin. padej** (Prazdnik ne v prazdnik);
2. **Nikogo + rod. padej** (Nikogo rodnых);
3. **Rod. padej+glagol+-sya** (Vremeni ne ostaetsya; Trudnosti ne vstrechaetsya);
4. **Ni + rod. padej** (Ni dushi ; Ni ogonka):

b) 6 ta leksik chegaralangan toifadan 2 ta, biri inkor olmoshlar va **ne kuda** tipidagi ravishlar bilan (**ne kuda poyti; Ne s kem govorit**), ikkinchisi inkor **ne** bilan **vidat** (ko'rmoq), **slyxat** (eshitmoq) fe'llarining infinitiv shakli orqali hosil bo'ladi. Masalan, **Schastya ne vidat; Takogo golosa nam uje ne slyxat; Nikuda poyti** kabi olmosh bilan ifodalangan sintaktik inkor sintaksisning ba'zi masalalarini yoritishga imkon beradi. **Hech kim** (Ni dushi): **Hech kim yo'q edi** (Ne bylo ni dushi): **Hech kim bo'lmaydi** (Ne budet ni dushi) gaplarini qiyoslab, ulardagi zamonlar, ya'ni hozirgi, kelasi zamonlar oppozistiyasini ko'rish mumkin .

Biroq bunday yondashuv shu kabi gaplarning inkor gaplar tizimidan tashqi ko'rinishini bildirib qoladi, xolos. Dunyo tilshunoslari **hech kim** (ni dushi) ko'rinishidagi qurilma fe'lsiz deb , ularga muayyan **byt** ; fe'lining 3 ta zamon shakllarini qo'shish bilan hozirgi, o'tgan, kelasi zamon shakllarini hosil qilishgan. Lekin yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, **hech kim** (ni dushi, bylo ni dushi, budet ni dushi) qurilmalari asosida hosil qilingan gaplar grammatik jihatdan

noto'g'ri deb qayd etiladi. Ularning ko'rinishini boshqacha, ya'ni **ni dushi** shaklini **net**, **ni dushi** shakliga aylantirishimiz mumkin. Lekin **ni dushi** qurilmasi tarkibidan «**net**» tushirib qoldirilgan deb ham aytish mumkin. Qolaversa, **ne bylo ni dushi**, **ne budet ni dushi** shakllarini ham yuqoridagi kabi tahlil qilib o'tish joiz, lekin buning natijasida «**net ni dushi**» formasida qiyinchilik paydo bo'ladiki, **ni** inkor yuklamasi nomiga, majburiy bo'lmagan elementga aylanadi va uni olib tashlasak, **net + rod. padej** (dushi net jivoy; pokoya net) formasi qoladi, lekin bu holat rus tilidagi gaplarning mutlaqo boshqa ko'rinishlarini tashkil etadi.

Barcha holatlarda bu formalarni bir tizimda ko'rish sintaktik qarama-qarshiliklarga olib keladi va bu ob'ektiv sintaktik tizim yo'qligidan dalolat beradi. Hamma gap shundaki, **net + rod. padej** va **ni + rod. padej** rus tilida butunlay turli strukturali formalar sanaladi. Shuning uchun **ni dushi**, **ne bylo ni dushi**, **ne budet ni dushi** qatorlari ana shu ko'rinishlar oralig'i bo'lib, ular ikkinchi darajali, qolaversa, tasodifiy munosabatlardir. Ular faqat ma'no jihatdan tizimli xarakterga egadir. Chunki ular o'xshashlik asosida, turli ko'rinishlarni leksik to'ldirish jarayonida paydo bo'ladi va leksik o'xshashlikni yo'qotganda o'z ifodasini yo'qotadi.

Ma'lumki, zamonaviy nazariyalar uch aspekt yoki vazifada, ya'ni nominastiya, predikastiya hamda modallikda talqin etiladi. Shu asosda semantik inkorni qaysi aspektda ko'rish mumkin degan savol tug'ilishi tabiiydir. Yuqoridagi uch holatni hisobga olgan holda ularni ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki, modallik zamon kategoriyasining keyingi rivoji va transpozistiyasi asosida kelib chiqqan. Shunga ko'ra inkor kategoriyasi zamon, modallik kategoriyasiga ham tegishli bo'lmasligi mumkin. Agar inkorning nominastiya va predikastiya formasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ularni ikki komponentli gaplar misolida ko'rib chiqish va ulardagi inkorni birinchi komponentda ham, ikkinchi komponentda ham yoki har ikkalasida, ya'ni ega va kesimda bir paytning o'zida teng qo'llash mumkin yoki mumkin emasligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunga ko'ra Yu.S. Stepanov quyidagi to'rt qurilmani taqdim etadi.

1. **Novichok igraet** (yangi o'rganuvchi chalayapti).
2. **Ne novichok igraet** (o'rganuvchi bo'lmagan chalayapti).
3. **Novichok ne igraet** (yangi o'rganuvchi chalmayapti).
4. **Ne novichok ne igraet** (yangi o'rganuvchi bo'lmagan chalmayapti).

Agar yuqoridagi to'rt variantga beshinchi forma qo'shilsa, unda inkor ma'nosi bitta a'zoga emas, balki butun boshli gapga tegishli bo'ladi va inkor etilgan gapga eksplisit (aniq) yoki implisit (yashirin) qilib boshqa gapni qarama-qarshi qo'yishga to'g'ri keladi.

Masalan: 5. **Ne veter bushuet nad borom - O'rmon daraxtlari ustida shamol qutirmayapti** yoki **O'rmon ustida qutirayotgan shamol emas: Ne s gor pobejali ruchi**,

[**moroz voevoda dozorom obxodit vladenya svoi**]; **Ne led treuĭt. Ne komar piiuĭt**, [**To kum do kumy sudaka tauuĭt**].

Yuqoridagi ikki forma uchala gapning omografi bo'lib, inkor qismi qavsga olingan:

a) «**ne novichok igraet**» qurilmasining ma'nosi «**tajribali usta chalyapti**» ma'nosiga tengdir va «**ne novichok**» bu erda semantik leksema bilan ifodalangan «**novichok**» ga antonim va «**master**», ya'ni «**опытный человек**» ga sinonim desak xato bo'lmas kerak [Novikov 1966, 4]. Bu gapning ikkinchi formaga munosabati semantik xarakterga ega bo'lib, u sintaktik nuqtai nazaridan tasodifiy qarama - qarshilikdir.

b) **ne** (novichok) **igraet** - **yangi atalmaydigan odam** ma'nosida kelib, bu semantik inkordir. Masalan, **Petrov igraet - ne Petrov igraet** kabi qurilma ham shular jumlasidandir.

v) «**ne** (novichok) **igraet**» ga «**ne novichok igraet**» qarama-qarshi qo'yilsa, gap «**ne novichok igraet, a instrument ploxy, v etom vse i delo**» tarzida yuzaga kelishi mumkin.

Shunday qilib, ikkinchi, ya'ni «**ne novichok igraet**» shakli qaysidir ma'noda beshinchi **ne veter bushuet nad borom** formalı gapga omonim hisoblanadi deb beshinchi formaning xususiyatlarini tahlil qilamiz. Shunga ko'ra «**V Arktike jivut belye medvedi**» gapi ifodasi bir vaqtni va aniq bir holatni ko'rsatayapti hamda nominastiya vazifasini va holatning belgilari borligini tasdiqlab predikastiya vazifasini bajaryapti.

Nominastiya vazifasida u «**Projivanie v Arktike belyx medvedey**» ko'rinishida sinonimik formaga ega va u predikastiya vazifasida «**imeet mesto chto v Arktike jivut belye medvedi**» sinonimik formaga ega. **Novichok chitaet: Petrov chitaet: Veter bushuet nad borom** qatorlari ham shular jumlasidandir.

Ne (novichok) **chitaet; ne veter bushuet nad borom** inkor formasida ham nominastiya formasi qarama-qarshi qo'yilmagan, lekin predikastiya qarama-qarshi qo'yilgan. Shunday qilib, inkorsiz forma (veter bushuet; novichok chitaet) bir vaqtda ikki, ya'ni nominastiya (holat ifodasi) va predikastiya (holat belgilari tasdig'i) vazifalarini bajaryapti. Birinchi inkor formada bu vazifalar ajrlyapti: beshinchi pridikastiya'ni inkor etishda nominastiya dahldorlikka ega emas.

Sintaktik inkor rus tilida gaplarning inkor strukturasi, ko'rinishi predikastiyaga xos forma bo'lib, u belgilarni vaqtdan, zamondan tashqari belgilaydi. Nominastiya, inkor esa fe'l so'zlarining inkor formalari bilan bog'liq ekan.

Inkorning semantik turlaridan yana biri maxsus inkor bo'lib, inkorning bu turi bo'lishli kesimga nisbatan boshqa gap bo'laklariga bog'liq emasligini bildirsa, bu so'z guruhlariga quyidagilarni kiritish mumkin. Ega, hol, to'ldiruvchi, kesimning maxsus aniqlovchi bo'lmagan komponenti kesim bilan uzviy aloqador emas .

Maxsus inkor masalasi turkiy tillarda qiyosiy ravishda yoritilmagan. Qolaversa, bu masalaga doir biron-bir monografiya yoki maqola bizga qiyosiy tahlil sifatida ma'lum emasdir.

Tadqiqotchilarning aksariyati bu inkor formasiga aniq bir ta'rif berolmay, uni kesimga ham, butun bir gapga ham taalluqli emas, balki alohida so'z birikmasiga tegishli deb tushunadilar .

Maxsus inkor faqatgina bir tushuncha ifodalab, unga aniq bir ta'rif berish ancha qiyinchilikka olib keladi. Agar u umumiy inkor kesimga qarashli inkor hisoblansa, biz bilamizki, u ega va kesim o'rtasidagi ma'noning bog'lanishini yuzaga keltirmaydi. Maxsus inkor gap bo'laklari o'rtasidagi aloqa yo'qligini ko'rsatib, ba'zi bir tadqiqotchilar bu tushunchani aniq ifodalay olmaydilar.

A.M. Peshkovskiy «**On uexal ne v Moskvu**» gapida uning ketishi va Moskva haqidagi taassurotning bir-biriga bog'liq emasligi haqidagi real bog'lanishni inkor etib, «**Ya interesuyus ne etoy knigoy**» gapida esa «**Mening qiziqishim va kitob haqidagi taassurot**» o'rtasida real aloqa inkori mavjud deydi. Bunday bo'lishli egali va inkor yuklamasi mavjud gaplarni maxsus inkor gap desa ham bo'laveradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, maxsus inkor ikkita taassurot o'rtasidagi noreal aloqa borligini ko'rsatib, bittasi kesim, ikkinchisi boshqa biron bir so'z birikmasi vazifasida kelishi mumkin.

Shunga ko'ra, A.M. Peshkovskiy fikri bo'yicha, maxsus inkor biron bir so'z birikmasining noreal aloqasini ifodalaydi. M. Xayze ta'kidlaganidek, sub'ektiv inkorni ob'ektiv yoki maxsus inkordan ajratmoq kerak. Qolaversa, tushunchalar o'rtasida aloqa yo'q deb bo'lmaydi, chunki gapda tushunchalar emas, balki so'z birikmalari ham ishtirok etadi. Balki L.F.Kumanichkina bu material asosida har doim ham maxsus inkor kesim o'rtasidagi bo'linishni ifodalavermaydi degan xulosaga kelgandir.

B.A.Ilish esa bu inkorni nafaqat butun bir gapga tegishli bo'lmasdan, ya'ni ega va kesim o'rtasidagi aloqani inkor etmay, balki gapning boshqa bo'laklaridan aniqlovchi, to'ldiruvchi va holni inkor etadi deb ta'kidlaydi .

Ko'pchilik olimlarning fikricha, jumladan, B.A. Ilish maxsus so'z birikmasidagi inkor gapdagi boshqa bo'laklarga nisbatan semantik aloqada bo'lmay, faqat shu so'z birikmasiga aloqadordir va butun bir gapda inkor xarakterga ega emas deb aytadi. Bu borada maxsus inkorga shu kabi sintaktik guruhlarning ham kiritilishi mumkinmi degan savol tug'iladi. Bunday noaniqliklar esa maxsus inkor to'g'risidagi masalani murakkablashtiradi. Yuqoridagi fikrlarga ijobiy yondashgan holda shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, agar maxsus inkor gapning egasi bilan kesimi o'rtasidagi inkorni ifodalamay, gapning boshqa bo'laklarini inkor etsa, unda inkor butun bir gapga tegishli bo'lmaydi va maxsus inkor gapning ikkinchi darajali bo'laklaridan birini inkor etib gapni to'laligicha inkor etmaydi. Bunga ko'ra infinitiv, gerundiy, sifatdosli konstrukstiyalarni misol qilib olishimiz mumkin.

Yana shuni alohida aytib o'tish lozimki, bo'lishsiz buyruq maylidagi ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda, ko'chirma gap kesimining inkori o'zlashtirma gapdagi kesimni emas, balki to'ldiruvchini inkor etadi.

Ko'pchilik dunyo tilshunoslari zamonaviy ingliz tilidagi inkorni quyidagi ikki nuqtai nazar (prinsip) da tasnif etishadi. Ularning biri leksik-sintaktik nuqtai nazarda bo'lsa, ikkinchisi morfologik jihatdandir. Leksik-sintaktik tasnif bo'yicha, ularning ma'nosi sintaktik vazifalar bilan mos tushgan holda inkorning quyidagi turlari e'tirof etiladi.

1. Inkor so'z-gap.
2. Jumla inkori.
3. So'z inkori.

Ma'no so'z-gap o'zining intonastiyasi va ma'nosi bilan mustaqil gap sifatida namoyon bo'ladi. Bunga o'zbek tilidagi «yo'q», ingliz tilidagi «no» so'zlarining matn ichida yaxlit jumla sifatida kelishini misol qilib olish mumkin. Masalan:

O'zbekcha: - Demak, kelin ayam faqat kir yuvarkanlar-da?

- Yo'q. (Said Ahmad, 367)

Inglizcha: - Have you got any money?

-No. (H. Olger, 8)

Ruscha: - Skaji mne, Ingles, ya tebe ne mogu pomoch v tvoey rabote?

-Net. (Xeminguey, 365)

Jumla inkori haqida gap borganda, u quyidagilarga bo'linadi:

- a) umumiy jumla inkori;
- b) xususiy jumla inkori.

Umumiy jumla inkori o'z navbatida ega, kesim, to'ldiruvchi va bog'lovchi inkor turlarga ajraladi.

Inkorning "**umuminkor, xususiy inkor**" toifalari to'g'risida gap ketganda (bu atamalarni birinchi marotaba A.M.Peshkovskiy lingvistlar e'tiboriga havola etgan, eng avvalo, kesim orqali ifodalangan inkorni "**umuminkor**", gapning boshqa bo'laklari oldida kelgan inkorni esa "**xususiy inkor**" ekanligini nazarda tutish kerak.

Inkor kategoriyasi bilan qiziqqan juda ko'p dunyo tilshunoslari inkorni semantik elementlar o'rtasidagi munosabatga muqoyasa qiladilar. Ana shundan kelib chiqib, fe'l inkor va fe'lsiz inkor turlariga ajratadilar. Fe'l inkorda bir butun gap barcha bo'laklari bilan inkor etiladi, fe'lsiz inkorda esa inkor yuklamadan keyin kelayotgan bo'lak inkor etiladi.

Inkor o'zining semantik mohiyatiga ko'ra ko'p ma'noli voqelik hisoblanadi va shuning uchun ham tasdiqqa nisbatan teskari jarayonni aks ettiradi. Gapning alohida bo'laklarini tasdiq

eta olmaganimizdek, ularni inkor qilish ham mushkul. Kesimda mujassamlashgan gap bo'laklarining vazifasi tasdiqlanishi yoki inkor etilishi mumkin.

O'zbekcha: **Men unga siringizni aytmadim** → **Men emas unga siringizni aytgan** → **Men unga siringizni aytganim yo'q** → **Kimdir sirni aytgan**.

Dunyo tillari inkorning turli ko'rinishlarini ifoda etish jarayonida inkor vositalarining gap tarkibida tutgan o'rniga qarab ham bir-biridan farq qilishi mumkin. Jumladan, hind tilida umuminkorning ifoda vositalari nafaqat fe'ldan oldin, balki boshqa o'rinlarda ham kelishi mumkin. Inkorning bunday mavqeli variantlari inkor etilayotgan elementni kuchli emfaza bilan aytilishini taqozo etadi.

O'tkazilgan kuzatishlar shu narsadan dalolat berayaptiki, jahon tillaridagi mavjud umuminkorni (**obwee otristanie** + **absolute negation**) ifodalash jihatidan ham ma'lum guruhlariga bo'linar ekan. Masalan, umuminkorni ifodalashda ugor-fin tillari ikki guruhga bo'linar ekan.

1. Umuminkor-inkor yuklamalar orqali ifodalanuvchi tillar guruhi
2. Tuslanuvchi inkor yordamchi fe'l orqali ifodalanuvchi tillar guruhi.

Birinchi usul ugor tillari uchun xarakterli xususiyat hisoblansa, ikkinchisi fin tillari shajarasiga kiruvchi tillar uchun xos xususiyatdir.

Bundan tashqari, mordov tilida xususiy inkorning ifoda vositalari umuminkor vositalaridan tubdan farq qiladi. Bu tillarda umuminkor inkor yordamchi fe'llar va ulardan yasalgan yuklamalar orqali o'z ifodasini topsa, xususiy inkor deyarli "**A**" o'zakli III shaxs birlikdagi umumiy yuklamalar orqali ifodalanadi.

Masalan: Erz. **A, Avol, Mok, af, ash, Erz.-Mok.apak**.

Umuminkor fe'l inkori hisoblanar ekan, uning turli tizimli tillarda gaplardagi tutgan o'rnini aniqlash lozim. Chunonchi, o'zbek tilida **-ma** inkor morfema orqali ifodalanib, kesim (so'z) tarkibida keladi.

Ingliz tilida **not** inkor yuklamasi yordamchi fe'ldan keyin alohida holda, o'z ma'nosini saqlagan **to have** fe'lidan keyin **not** inkor yuklamasi yoki **no** inkor so'zi o'z o'rnini egallaydi. Nemis tilidagi **nicht** va rus tilidagi **ne** inkor vositalari asosiy fe'ldan oldin alohida keladi. O'zbek tilidagi **yo'q, emas** inkor so'zlari esa ba'zan o'zi kesimlik vazifasini bajarib, uning fe'l qo'shimchasini olishini (ba'zan yashirin) va gap kesimini inkor etib, uning umumiy yoki fe'l inkorga tegishli bo'lishini ifodalashi shubhasiz, tabiiy bir holdir.

Masalan: **Karim uyda yo'q yoki Karim uyda emas**.

Bu erda «**yo'q**» va «**emas**» ga fe'l qo'shimchasi «**-dir**» yashirin qo'shilib, ular qo'shma ot kesimning ot qismini tashkil etmoqda va, umuman olganda, gapning kesimi inkor etilmoqda. Bu esa umumiy yoki fe'l inkor qonun- qoidasiga ko'ra inkorning ushbu turini ifodalaydi. Rus tilida

esa “**net**” inkor soʻzi yuqoridagi kabi talqin etilishi mumkin. Masalan: **Ego netu**. Bundan tashqari, birgina inkor soʻz butun bir gapni tashkil qilishi mumkin-ki, uni bir tomondan gapning egasi, ikkinchi tomondan esa kesimi deb aytilish qiyin. Umuman olganda, har bir til voqeligi oʻzining yuqoridagi kabi eʼtibordan chetda qolgan tomonlarining tadqiq etilishini izlanuvchidan kutib qoladi.

Inkorning xususiy turi toʻgʻrisida gap ketganda shuni eʼtiborga olish lozimki, bunda gapning maʼlum bir boʻlagi inkor yuklamasi orqali inkor etiladi. Ayniqsa, bu nemis tilidagi inkor “**nicht**” yuklamasi hamda rus tilidagi “**ne**”, oʻzbek tilidagi “**–ma**”, “**emas**”lar orqali oʻzini toʻla namoyon etadi. Masalan:

Nemisch: **Der lehrer hat mich heute nicht gelobt** → **Der Lehrer hat mich nicht heute gelobt** → **Nicht der Lehrer hat mich heute gelobt**.

Ruscha: **Ya ne kupil knigu** → **Ne ya kupil knigu** → **Ya kupil ne knigu**.

Oʻzbekcha: **Qoʻlimdagi kitob emas**.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, rus tilidagi **ne** yuklamasidan farqli oʻlaroq nemis tilidagi **nicht** yuklamasining gapdagi oʻrnini erkin almashinishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham nemis tilidagi inkor gaplarda **nicht** ning gapdagi oʻrnini aniqlash uchun faqat feʼl kesimning inkor etilishini emas, balki feʼl kesim guruhi tarkibiga yana qanday komponentlar kirishini ham nazarda tutish muhimdir. Ana shundan kelib chiqib, nemis tilidagi **nicht** yuklamasining gapdagi oʻrnini ikki nuqtai nazardan kuzatishga toʻgʻri keladi: bir tomondan, feʼl kesimga nisbatan, ikkinchi tomondan esa feʼl-kesim tarkibiga kiruvchi boshqa komponentlarga munosabatiga koʻra.

Sodda boʻlishsiz gaplarda, shuningdek, bosh gaplarda ham **nicht** odatda feʼl-kesimning shaxs formasidan keyin turadi. Tuslanuvchi feʼl oxirgi oʻrinda kelsa (bu holat koʻpincha ergash gaplarga taalluqli), inkor yuklama uning oldidan keladi. Bu holatlar **nicht** yuklamasi uchun mutlaq meʼyor hisoblanadi. Feʼlning shaxssiz formasiga ega boʻlgan gaplarda **nicht** ot formadan oldin keladi. Masalan: **nicht rouchen!** Bundan tashqari, inkor **nicht** yuklamasi oʻzi uchun inkor qilinayotgan narsa va hodisalarning oldidan kelishi quyidagi holatlarda kuzatiladi.

1. Oʻrin holidan oldin:

Ich bin nicht in den Park gegangen → **Men parkka bormadim** →

Ya ne xodil v park; Ich springe nicht im zimmer umher → **Men xonada sakramayman** → **Ya ne прыгалу v komnate**.

2. Holat holidan oldin:

Ich weiß es nicht genau → **Men bu ni aniq bilmayman** → **Ya tochno ne znayu**.

3. Maqsad holidan oldin:

Ich will nicht zu diesem Zweck dorthin gehen → Men bu maqsadda u erga borishni hohlamayman → Ya s etoy stelyu tuda ne xochu idti.

4. Murakkab to'ldiruvchi bilan (olmoshli ravishni o'z ichiga olib):

Ich habe Mich damals nicht fur Musik interessiert → Men o'sha vaqtda muzikaga qiziqmadim → Ya v to vremya ne interesovalsya muzykoy; Ich danke nicht mehr daran → Men bu haqda boshqa o'ylamayman → Ya ob etom bolshe ne dumayu.

5. Kesim turg'un birikma bilan ifodalangan bo'lsa, u holatda **nicht** fe'ldan boshqa so'z turkumi oldida turadi:

Ich spiele nicht Klavier → Men royal chalmayman → Ya ne igrayu na royale.

6. Ot kesimli gaplarda inkor otdan, qisman kesim oldida keladi:

Ich bin nicht mude → Men charchamadim → Ya ne ustal.

Inkor **nicht** yuklamasining o'zi inkor etayotgan so'zdan keyin kelishi ham kuzatiladi va bu holatlarga quyidagilar kiradi:

1. Payt holi vazifasidagi gapda:

Wir arbeiten morgen nicht → Biz ertaga ishlamaymiz → Мы завтра не работаem.

2. Sabab holidan keyin:

Ich Konte vor Erregung nicht sprechen → Hayajonlanganimdan gapira olmay qoldim → Ya ne mog govorit ot volneniya.

3. Shart holidan keyin:

Wir gehen bei Regen nicht spazuren → Biz yomg'irda aylanmaymiz → Мы v dojd ne gulyaem.

4. To'siqsizlik holidan keyin:

Er arbeitet trotz seiner ausgezeichneten Gesundheit nicht → Sog'ligi yaxshi bo'lishiga qaramay u ishlamayapti → Ne smotrya na otlichnoe zdarove, on ne rabotaet.

5. Butun gapga aloqador bo'lgan modal fe'llardan keyin:

Ich gehe heute natürlich nicht → Men, albatta, bugun bormayman → Ya, konechno, segodnya ne poydu.

6. Ajratilmagan predlogsiz to'ldiruvchi. Odatda, bu holatlarda ot aniq artikl yoki olmosh sifatlar bilan qo'llaniladi.

Ich habe dieses Buch nicht gelesen → Men bu kitobni o'qimadim → Ya etu knigu ne chital.

Shunday qilib, gap tarkibidagi alohida olingan tushunchalarni yoki bo'laklarni inkor qilish hind-evropa tillari orasida, jumladan, nemis va rus tillarida ko'p tarqalgan. Ingliz tili uchun bu holat deyarli xarakterli emas. Albatta xususiy inkor faqatgina inkor yuklamalar orqali

amalga oshirilar ekan degan fikrga bormaslik kerak. Tilda boshqa vositalar ham mavjud, jumladan inkor olmoshlar, inkor ravishlar shular jumlasiga kiradi.

Yuqoridagilardan tashqari, jahon tillarining tasviriy grammatikasidagi fikrlarning dalolat berishicha, dunyo tillarida, xususan, hind tilida barcha soʻzlar inkor etilishi nuqtai nazaridan ikki guruhga boʻlinadi. Birinchisi bogʻlovchilar, undov soʻzlar, emfatik soʻzlar hech qachon inkor etilmaydigan soʻzlar guruhini tashkil etsa; ikkinchisi olmoshlar, sifatlar, feʼllar, ravishlar inkor etilish xususiyatiga ega boʻlgan soʻzlar toifasini tashkil etadi.

Inkor konstruktiviyalar paremiologiya va frazeologik birliklarda ham uchraydi [www.lib.csu.ru]. Shuningdek, ular tarkibida ishlatiluvchi xususiy inkor oʻrnini gapning boshqa boʻlaklari oldiga oʻtkazib boʻlmaydi. Chunki inkorning inversiyasi paremiya va, ayniqsa, frazeologik chatishmalarda mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlarning xulosasi sifatida shuni aytish mumkinki, xususiy inkor gapning kesimdan tashqari har qanday boʻlagini inkor etishi mumkin. U umumiy inkor kabi turgʻun emas. Koʻpchilik dunyo tillarida xususiy inkor keng koʻlamda, xususan polinegativ toifali tillarda ishlatiladi. Mononegativ tillarda ham inkorning ushbu turi polinegativ tillardagidek boʻlmasa-da qoʻllaniladi. Lekin nemis tilida koʻproq gapda asosan kesim inkor etilishi sababli, uning ishlatilish koʻlami etarli darajada emas. Tillarda xususiy inkor ishtirok etgan gaplar boʻlishli gaplar deb ham yuritiladi.

Lingvistik adabiyotlarda “**dvoynoe, dvukratnoe, mnogokratnoe + multiple negation**” atamaları bilan nomlanuvchi inkorning turi haqida har xil fikrlar mavjud.

Dunyo tillarining koʻpchiligida birdan ortiq inkor vositalarining ishlatilishi uchray turadi. Masalan, german tillarining tarixiy taraqqiyoti davrida uchta, toʻrtta, beshtagacha inkor vositalarining bitta mikrokontekst tarkibida ishlatilishi kuzatilgan (XIV asrgacha). Shuning uchun ham hind-evropa tillari tadqiqotchilari “**polinegativlik**” hamda “**koʻp karrali inkor**” kabi atamalar orqali polinegativlikni tushunishgan. Ingliz tili tadqiqotchilarining taʼkidlashicha, ingliz tilidagi mavjud ikkilamchi (Double negation) inkor lotin tilining taʼsirida isteʼmoldan chiqib ketgan. German tillarida ikkilamchi inkorning isteʼmoldan chiqib ketishini faqat lotin tilining taʼsiri bilan bogʻlash, bizning fikrimizcha, unchalik toʻgʻri boʻlmasa kerak, chunki har bir tilning grammatik yoki leksik tuzilishida roʻy berayotgan oʻzgarishlar oʻsha tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Slavyan tilshunosligida ikkilamchi (dvoynoe otristanie) inkor atamasi bilan «**ne**» yuklamasidan tashqari yana “**ni**” yuklamasini yoki inkor olmosh va ravishlarning bitta gap tarkibida ishlatilishi tushunilgan. Bir mikrokontekst tarkibida «**ni**» yuklamasining (inkor olmosh va ravishlar tarkibida ham) slavyan tillarida mavjudligi odatda kesim oldidan «**ne**» yuklamasining ishlatilishini taqozo etadi. Gap mazmunan va shaklan boʻlishsiz boʻlib, bu holatda

inkor so'zlarning qo'shilib ketishi o'zgacha bir inkor ma'nosini ifoda etadi. Ko'pchilik tilshunoslarning e'tiroziga sabab bo'lgan yana bir nuqtai nazar mavjud. Unga ko'ra inkor yuklama, xuddi shuningdek, inkor olmosh va ravishlar ham gap tarkibida inkor ma'no kasb etmaydi va ularning bir paytda ishlatilishi ikkilamchi inkor yasamaydi.

Qadimgi slavyan tillarida, jumladan, serb-xorvat va rus tillarida kesimdan oldin keladigan «**ne**» yoki «**ni**» yuklamalarisiz uchragan gaplarda «**ni**» inkor yuklamasini olib kelgan olmosh yoki ravishlar gapda ega, to'ldiruvchi va hol vazifasini bajarib kelganda, gap to'laligicha inkor ma'no kasb etavergan.

Hozirgi paytga kelib rus tilining ayrim dialektlarida bir inkor vositasi ishlatilgan modellari ham uchrab turadi. Bu omillarning barchasi «**ni**» yuklamasi bilan yasalgan olmosh va ravishlarning hozirgi zamon slavyan tillarida o'zlarining inkor ma'nolarini saqlab kelayotganidan dalolat beradi. Ular kesim oldidan kelayotgan «**ne**» yuklamasi bilan birgalikda ishlatilib, kesim orqali amalga oshayotgan ish-harakat va holatning inkor ma'nosini bo'rttirib ko'rsatadi. Ammo ayrim tilshunoslarning fikricha, ikkilamchi inkor, ya'ni inkorning inkori hosil qilinmagan.

Shu o'rinda lingvistik atamalar o'zlari nomlayotgan voqealiklarning mohiyatini ochib berishi nuqtai nazaridan ayrim mulohazalarni o'rta tashlashga to'g'ri keladi. Tilshunoslik tarixida inkor kategoriyasi bilan shug'ullangan olimlarning aksariyati ikkilamchi (double negation-dvoynoe otristanie) inkor atamasi bilan bitta mikrokontekst tarkibida ikki va undan ortiq inkor vositalarining ishlatilishini nazarda tutganlar. Faqat ayrim tilshunoslarga ikkilamchi inkor (double negation-dvoynoe otristanie) atamasi bilan inkorning inkorini tushunishadi. Xuddi falsafada inkorning inkor qonuni bo'lganidek, lingvistikada ham ikkilamchi inkor yoki inkorning inkori, albatta, bo'lishlilikka, tasdiqni alohida ta'kidlashga yo'naltirilgandir. Ikkilamchi inkor yoki inkorning inkori deganda biz tasdiq ma'no kasb etuvchi inkor vositalarining bir-birini istisno qilishini tushunamiz. Masalan: **Nachora, urush qurbonsiz bo'lmas ekan-da, oqsoqol** (Qaipbergenev, 18); **...Nodirovning bu kelishi natijasiz bo'lmadi** (Rahim, 151).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, "**Dvoynoe**" yoki "**dvuxkraktnoe**" atamaları bilan esa hech qachon bo'lishsizlikni tushunmaslik kerak, zero ikki karra inkor har doim bo'lishlilikni ifoda etishligini badiiy adabiyotdan keltirilgan misollar tasdiqlamoqda.

Masalan: **Ammo sizni shubhadan chiqaraturg'an hujjatlaringiz albatta yo'q emas edi** (Qodiriy, 342); **Hiyol labziga ishonmaslikka ham haqqimiz yo'q** (Rahim, 19,13).

Inkorning inkori yordamida gapning tasdig'i bo'rttiriladi hamda ta'kidlanadi.

4. Keyingi asosiy holat polinegativ tillarga xos emas. Chunki bu tillarda umumlashtiruvchi inkor olmosh va ravishlar tasdiqni emas, balki inkorni ko'rsatadi. Bir-birini yo'q qilish holatini bir gap tarkibida faqatgina «**ne**» inkori va umumlashtiruvchi inkorga ega

bo'lganda kuzatish mumkin. Bu esa so'zlashuv tiliga xosdir. Masalan: **Eto tebe nichego ne stoit-Vovse ne nichego - Ne nichego** t.e. → **chto-to**.

Polinegativ til hisoblanmish turkiy tillar oilasida, qolaversa mononegativ tillardan hind-evropa tillari oilasiga mansub german tillarida ham ikkilamchi inkor ishlatilib, tasdiq ma'no berishi shubhasizdir.

Biz bir gap tarkibida bir yoki bir nechta inkor vositalarining birga kelib, tasdiq ma'no berishini yuqoridagi misollar orqali rus va o'zbek tillarida ko'rib chiqdik.

O. Bexagelning fikricha, bir-birini istisno qilish hodisasi lotin tilidan olingan. Inkorning inkoridan tasdiq ma'nosi kelib chiqishi XVI asrga kelib nemis tilida uchramaydi.

Ingliz tilida ham «**ne**» inkor prefiksining tushib qolishi german tillarining bir gap strukturasida birlamchi inkorning ishlatilishi va polinegativ toifadan mononegativ toifaga aylanishi uchun asos bo'lgan.

Bu esa o'rta ingliz tili davri boshiga to'g'ri keladi va yuqoridagi holatning vujudga kelishi, ya'ni ikkilamchi inkordan tasdiq ma'noning kuzatilishi XVI asrgacha davom etgan.

XV asrning boshlariga kelib, inkor gaplarda hozirgi va o'tgan noaniq zamonlarning analitik shakli vujudga keldi. Natijada inkor vosita yordamchi fe'l bilan qo'llana boshladi va uni quyidagi misol orqali ko'rishimiz mumkin.

Boy madaniy merosga molik bo'lgan o'zbek xalqining tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan qiyosiy tipologiya'ning asoschisi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida gap tarkibida inkor vositasining ishlatilishiga ko'ra XI asrda ham o'zbek tilida ikkilamchi inkor qo'llanib, u tasdiq ma'no ifodalaganini misollar asosida tushunib olish mumkin [Koshg'ariy, 1960, 148].

Masalan: **arqasiz er cherik cijymac - «yordamchisiz qahramon jang saflarini sindirolmaydi»**.

Hozirgi o'zbek tilida ham ikkilamchi inkorning bir gap tarkibida ishlatilib, bo'lishli ma'no kasb etishi kuzatilmoqda. Ayrim adabiyotlarda ta'kidlanishicha, **-ma** inkor affiksining qo'shma fe'lning har ikki komponentiga qo'shilishi tasdiqni ifodalaydi [Shomaqsudov, 1983, 138].

Masalan: **U shu qadar sofdillik bilan gapirdiki, unga ishonmasligim mumkin emas edi** (Defo, 15).

Darhaqiqat, ikkilamchi inkor polinegativ tillar uchun xarakterli bo'lsada, lekin yuqorida ko'rib o'tilgan nazariy va amaliy yondashuvlarga ko'ra mononegativ tillarda ham oz bo'lsa-da stilistik vosita sifatida qo'llanadi. Uning ishlatilishi esa o'zaro hurmat, yoshning katta-kichikligi, qolaversa, so'zlovchining so'zga mohirligidan dalolat beradi.

Ayrim adabiyotlarda aytilishicha, hozirda polinegativ til hisoblanmish rus tilida bir gap tarkibida bir necha inkor vositalarining qo'llanishi tarixiy davrlarda ham kuzatilgan. Qadimgi rus tilida gapda inkorning ifoda etilishiga ko'ra ikki xususiyat mavjud bo'lgan: ulardan biri ega, to'ldiruvchi, hol vazifasida keluvchi (**nikto, nichto** kabi) inkor olmosh va ravishlarning «**ni**», hamda fe'lining «**ne**» inkor vositasini olishi bilan ifodalangan bu holat solnoma va yodnoma kabi yodgorliklarda ko'proq ishlatilgan.

Inkorning birinchi xususiyati tarixiy taraqqiyot davomida iste'moldan chiqib ketgan. Ikkinchi holat esa hozirda ham inkorni kuchaytiruvchi «**ni...ni**» takroriy bog'lovchi sifatida qo'llanishida kuzatiladi.

Ko'plab dunyo tillari qadimda, hatto o'rta asrlarda ham polinegativ xususiyatga ega bo'lib, ularning keyingi rivoji tilning ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda mononegativ toifaga aylangan. Ayrim, xususan, turkiy, ugor-fin tillari oilasi, hind-evropa tillarining slavyan tillari guruhiga kiruvchi tillar esa qadimdan to hozirgacha polinegativlik xususiyatiga ega bo'lgan. Bu esa tillarning tarixiy rivojlanish jarayonidagi tavsifini ochib beradi.

Jahon tillarida inkor kategoriyasini ifoda etishning turli usullari mavjudligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Har bir til o'zining grammatik qurilishining qonuniyatlaridan kelib chiqib, aniq tizimga ega bo'lgan ifoda vositalarining majmuini ishlab chiqqan. Hind-evropa tillarida ko'proq leksik va sintaktik usullar orqali inkorni ifoda etish ustun tursa, ayrim tillarda, jumladan, turkiy tillarda morfologik usul ko'proq ustun turadi. Bundan tashqari, dunyo tillarida shaklan bo'lishli, mazmunan bo'lishsiz yoki inkor ma'noga ega bo'lgan gaplar orqali ham ushbu kategoriya o'z ifodasini topadi. Bu o'rinda ko'proq kinoya (ironiya) ga asoslangan ma'no ko'chish holati kuzatiladi.

Masalan: O'zbekcha: **Qanday aqllisiz-a!...** (kesatish ma'nosida); **Sizga havasim kelyapti, koshkiydi men ham borsam!..** (Ibrohim Rahim, 4).

Inglizcha: **How clever you are to understand this matter!...; Much you know what is harmless!... and what isn't.**

Kinoyadan tashqari inkor ma'no ritorik so'roq gaplar orqali ham ifodalanishi mumkin.

Masalan: 1. **Xotin kishiga ona bo'lishdan kattaroq baxt bormi?** (Ibrohim Rahim, 47). **Tur-e, yigit degan ham shunaqa bo'ladimi?. -Sen ota-ona, qarindosh-urug`ni bilarmiding?** (Nurali Qobul, 159, 161).

Yuqoridagi misollarda ritorik so'roq gaplar ekspressiv vazifa bajarmoqda. Emostiya esa, bir tomondan, zaruriyatning konkret texnik formasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, individ zaruriyati nuqtai nazaridan vaziyatni baholash, qayta sozlash, uni zaruriy harakatga solish mexanizmidir.

Ritorik so'roqlarning vazifasiga ko'ra guruhlar orasida inkorsiz qo'llangan ritorik so'roqlar adresati tinglovchiga qandaydir ta'sir ko'rsatishga mo'ljallanadi [Shomaqsudov, 1983,

235]. Masalan: **Yigit uchun mardlik, qaxramonlikdan o'zga ulug'roq, oliyroq bir fazilat bormi?!; Qaerga boradi?** (S. Ahmad, 128).

Ayrim paytlarda ham shaklan, ham mazmunan inkor gaplar stilistik jihatdan badiiy adabiyotda har xil vazifalar bajaradi. Bu holat ko'proq turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ko'p uchraydi.

Masalan, Uyg'unning «Jafo qilma» radifli g'azaliga e'tibor qilsak, **-ma** inkor affiksali morfemasi qofiya bo'lib kelgan **«qilma»** so'zi tarkibida takrorlanib ishlatiladi:

Tark etma nazokatni, xulqingga jafo qilma,

Izzatni berib elga, behuda safo qilma.

Umringni harob etma, o'tkunchi havas bilan,

Ishq boshqa, havas boshqa-bu yo'lda xato qilma.

Asarlarda inkor ma'noli so'z yolg'iz holda uning sarlavhasi sifatida ham qo'llaniladi. Jumladan, Alisher Navoiy quyidagi g'azalini «Kelmadi» deb nomlagan. Masalan:

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtimu chektim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zing'ayu ul sho'xi badxo' kelmadi...

So'zlashuv nutqida inkorning ekspressivligi turli vazifalarni bajaradi. Masalan, inkor affikslar to'la bo'yoqdorlik kasb etib, ma'qullamaslik, quvvatlamaslik yoki manzur ko'rmaslik kabilarni bildiradi.

Inkorning ekspressivligi narsa, hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni kamaytirib tasvirlashda ham qo'llanilib, buni stilistika fanida litota deb ataladi [Boboev, 2002, 345]. Litotada inkor ikkilamchi yoki birlamchi inkor orqali ham ifodalanishi mumkin. Ikkilamchi inkorda esa gap ma'nosining tasdiqqa yo'nalishi stilistik ko'chim hisoblanadi. Masalan:

O'zbekcha: **ko'p * oz emas; yaxshi * yomon emas;**

ko'rganman * ko'rmagan emasman

Ruscha: **Xorosh!, Otlichno! * Ne ploxo, a?**

Legko dogadatsya * ne trudno dogadatsya

Ko'p hollarda she'riyatda inkor vositalardagi bir xil tovushlar takrorlanib, alliteratsiya hodisasini keltirib chiqaradi.

Qolaversa, achchiq haqiqat, tanqid, inkor bor joyda rivoj bo'lganidek, asar qanchalik achinarli, afsuslanish, xohish-istak ma'nosida yozilsa, o'quvchi shunchalik asarni berilib o'qiydiki, o'zi ham shu asar ichiga obraz bo'lib kirib qolganini bilmay qoladi, uni sevib o'qiydi. Chunki har kim o'z boshidan yuqoridagi kabilarni o'tkazadi va bu asarlar ularga tasalli beradi yoki qiyinchilikda oz muncha o'tgan umrini eslaydi va avlodni kelajakdagi ayrim

qiyinchiliklarning oldini olib engishga tayyorgarlik ko'rishga turtki bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak. She'r, g'azal, umuman olganda, asar yozish uchun ilhom insonga tushkunlikka tushganda, tang ahvolda qolganda keladi. Yozuvchilar uchun esa ilhom ana shu tushkunlik atrofdagilar hayotiga bo'lgan qiziqishi asosida paydo bo'ladi.

Ikkinchi bob. Inkor vositalarining ishlatilish darajasiga ko'ra turlari

2.1. Tillarning polinegativ va mononegativ strukturalari

XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarmida hind-evropa tillari uchun xos bo'lgan **-ne** ko'makchisining gap tarkibidan tushib qolishi natijasida mononegativlik modeli asosida qurilgan juda ko'pgina gaplar tizimi paydo bo'ldi-ki, bu gaplarda inkorning asosiy ko'rsatkichi mana shu umumiy inkorni ifodalovchi **not** til vositasi orqali o'zini namoyon etadi. Ikkilamchi inkor esa faqatgina XV asrning birinchi yarmidagi yodgorliklarda uchraydi xolos. XVII asrning boshlariga kelib, mononegativ gap strukturalari yoki qurilmalari ikki va undan ortiq umumiy bo'laklarga ega bo'lgan inkor gaplarda to'laligicha o'z o'rnini egalladi.

Mononegativlikka o'tishning ikkinchi yo'li esa, ayrim tilshunoslarning fikricha [Shipulina, 1962, 11], bir tomondan **nor** va **or**, ikkinchi tomondan esa **neither...nor** va **either...or** bog'lovchilarining formal nuqtai nazardan bir-biriga o'xshash bo'lganligi tufayli sodir bo'lgan.

Aslida ilk yangi ingliz tili davrida inkor darak gaplar ikkita bosqichdan o'tgan. Birinchi bosqich shunisi bilan xarakterli, bu davrda **«ne»** ko'makchisi tushib qolishi tufayli inkor olmosh va ravishlar fe'l kesimni inkor etish vazifasini o'tay boshlagan. Shuning uchun ularni umumiy bo'lakli gaplardagi asosiy inkor vositalari sifatida e'tiborga olish kerak. XVI asrning boshidan boshlab esa ikkinchi bosqich o'zini namoyon etgan. Bu davrning harakatlantiruvchi kuchi gaplar o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirishning analitik usulga o'tishi bilan xarakterlanadi. Bu davr yana shunisi bilan e'tiborga molik-ki, barcha inkor gaplarning toifalarida gapning yadrosi hisoblanmish predikativ aloqani grammatik jihatdan o'z ifodasini topishga bo'lgan yo'nalishdir. Ana shu holat o'z navbatida inkorni ifoda etuvchi vositaning ega yoki kesim oldida o'zini namoyon qilishi yoki ishlatilishidir.

Dunyo tillarining polinegativlikdan mononegativlikka o'tish jarayoni inson tafakkurining rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq yoki bog'liq emas deb aytish qiyin. Chunki dunyo tillarining ko'pchiligida bir yoki turli oilalarga tegishlilikidan qat'iy nazar, tipologik nuqtai nazardan bir-biriga o'xshash bo'lgan tillar juda ko'p. Masalan, xuddi shu polinegativ va mononegativlik muammosini hind-evropa va turkiy tillar misolida olib ko'raylik. O'zbek va rus tillari genetik jihatdan hech qanday qarindoshlik aloqalari bilan xarakterlanmasa-da, lekin bir mikrokontekstda ikki va undan ortiq inkor vositalardan erkin foydalanish ushbu ikki til uchun ma'lum bir til

universaliasini belgilab, tipologik nuqtai nazardan ularni polinegativ til toifasiga kirishini belgilaydi.

Qiyoslang: **Ya nikogda nikomu nigde nichego ne skazal → Men hech kimga hech qachon hech qaerda hech narsa aytmaganman** (suhbatdan).

yoki

Biz endi hech qachon va hech qaerda ilgarigidek bo'lolmaymiz

Jahon tillarida, jumladan, ingliz, o'zbek, rus tillarida polinegativlik va mononegativlik aynan bir davrda o'z aksini topgan jarayon emas, u uzoq o'tmishga ega. Shundan kelib chiqib, dastlab inkor har bir tilda qanday qilib o'z ifodasini topgan, nima uchun inkorga ehtiyoj tug'ildi, uning birinchi ko'rinishlari qanday, polinegativ toifali turlar qanday qilib mononegativ toifali turlarga aylanganligi to'g'risidagi savollarga quyida imkon qadar javob berishga harakat qilamiz.

Inkorning har bir turda o'z aksini topishiga sabab, kirish qismida aytib o'tilganidek, har bir narsaning qarama-qarshi tomoni, ya'ni uning inkori mavjudligidir. Darhaqiqat, inson dunyoga kelibdiki, dastlabki davrlarda ularning jonli so'zlashuv tili bo'lmasa-da, ular o'zaro bir-birlari bilan yordamchi til vositasi bo'lgan imo-ishora, rangli bo'yoqlar yig'indisi, musiqiy ohang, chizma rasm, yozuv tili, har xil un tovushlaridan kommunikatsiya vositasi sifatida foydalanishgan. Shu vositalar yordamida so'zlovchi aloqaga chiqayotganda tinglovchi xabarni qabul qilishi yoki rad qilishi, albatta, mumkin bo'lgan.

Jonli til paydo bo'lgandan so'ng har bir axborotni, hoh u tasdiq, hoh inkor bo'lsin uni ifodalovchi til vositasi bo'lgan va bular bevosita til sathlarini egallagan.

Inkor gaplarni tildagi dastlabki shakllari xususida fikr yuritar ekanmiz, u dunyo tillarida, chunonchi german tillarining ingliz tilisida diaxronik jihatdan ko'p o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Dunyo tilshunolarining e'tirof etishicha, inkor gaplar qadimgi ingliz tilida o'z tarkibida bir necha inkor elementlarni o'zida aks ettira olgan. Bu esa polinegativlikdan dalolat beradi va u qadimgi german va got tillari uchun unchalik xarakterli bo'lmagan.

O'zbek tilida ham inkor olmosh va ravishlar gapda bo'lishsizlik ma'nosini kuchaytiruvchi omillar sifatida ishlatiladi. Chunonchi, **hech kim kelmadi** va **u hech kimga hech narsa aytmadi** gaplariga e'tibor bersak, birinchi gapdagi **hech kim** inkor olmoshi gapda ega vazifasida kelyapti. Ikkinchi gapda esa **hech kimga** inkor olmoshi to'ldiruvchi vazifasida kelib, -**ma** inkor prefiksali affiksiga kuchaytiruv inkor ma'no berayapti. Shu kabi xususiyatlarga ko'ra inkor olmosh va ravishlar ham inkorning ifodalashida kuchaytiruvchi va kuchaytirmaslik darajasida ishlatiladi. Jumladan, eski o'zbek tilida ham inkor olmoshlar fe'lining -**ma**, -**me** kabi inkor affiksali morfemasi va **yoq** inkor so'zi orqali ushbu vazifada qo'llanilgan [Abdurahmonov, Shukurov, 1973, 114].

Masalan: **Men sendin hech nimerse alganym yoq.**

Biz dunyo tillarining inkor vositalarini qay darajada ishlatilish ko'lamiga ko'ra turlarga bo'linishini ham tarixiy, ham ilmiy va badiiy adabiyotlar manbalariga tayangan holda tahlil qilib chiqdik. Yuqoridagi keltirilgan manbalarning tahlili turkiy tillar oilasini polinegativ toifaga, hind-evropa tillari oilasining german tillari guruhini mononegativ toifaga mansubligini ko'rsatadi.

XIV asrga kelib bitta mikrokontekstda ishlatiladigan inkor elementlarning miqdori 67% gacha ko'payib ketdi. Ayniqsa, polinegativ gap konstruktiviyalarining ishlatilish doirasi ish yuritish qog'ozlari uslubiyatida ko'p uchraydi. Chunki bu uslubda qadimgi inkor yuklamasi bilan bir qatorda inkor bog'lovchilarining ham ishlatilishi xarakterli bo'lgan. Boshqa janrlarda yozilgan yodgorliklarning paydo bo'lishi hamda ish yuritish qog'ozlari uslubida yozilgan yodgorliklarning kamayishi natijasi o'laroq ko'p marotaba ishlatiluvchi inkor elementlarning miqdori birdaniga kamayib ketgan. Natijada XV asrga kelib ingliz tilida ko'p ishlatiluvchi inkor elementlarning umumiy miqdori 6% bo'lsa, XVI asrga kelib, 1% ni tashkil qilgan.

Jahon tillarida polinegativlik va mononegativlik muammosi yoki polinegativlikdan mononegativlikka o'tish borasidagi fikrlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayon bir necha asrlarning mahsuli ekan. Chunonchi, hind-evropa tillarida polinegativlikdan mononegativ gap qurilmalariga o'tish, xususan, ingliz va nemis tillarida XIV asrdan boshlanib to XVII asrgacha davom etgan.

Morfologik qurilishi turlicha bo'lgan dunyo tillari gapda inkor elementlarining qo'llanishiga qarab polinegativ va mononegativ tillarga bo'linadi dedik. Chunonchi, o'zbek va rus tillari polinegativlik xususiyatiga ega. Mononegativlik esa ingliz, nemis va boshqa german tillari uchun xos xususiyatdir. Bu tillarda, jumladan, ingliz tilida bir gapda birdan ortiq inkor elementi qo'llanmaydi. O'zbek va rus tillari polinegativ tillar toifasiga kirganligi sabab, bu tillarda gap tarkibida birdan ortiq inkor elementlari ishlatilishi mumkin va bu jarayon hanz davom etib kelayapti.

Masalan: O'zbekcha: **Berdimurod Do'stmurod boboga hech nima deyolmadi. Qiziq, u kishiga hech kim gap qaytara olmaydi.** (Qobul, 133); **U jon-jahdi bilan shunday qattiq urdiki, men bunday dahshatli ovozni hech qachon eshitgan emasman.** (Defo, 19)

Ruscha: **Ni kto ne nazval by jizn Ellin lyogkoy ili schastlivoy, no legkoy jizni ona i ne jdala, a esli na eyo dolyu ne vypalo schastya, to takov, kazalos ey, jenskiy udel.** (Mitchel, 8)

Bundan tashqari, shu narsa diqqatga sazovorki, inson nutqidagi ikkilangan yoki ikkilanmagan inkor uning jamiyatning qaysi tabaqasidan ekanligini aniqlash imkonini ham

beradi. Nutqda ikkilamchi inkorni ko'p ishlatish ijtimoiy holati, mavqei, ziyoli bo'lmagan bo'lgan odamlarga xos ko'rinishdir. Lekin bu konstrukstiya nafaqat ushbu tabaqadagi odamlar nutqiga, balki ziyoli, ma'lumotga ega bo'lgan odamlarning nutqida ham ba'zan uchrashi yoki butunlay uchramasligi ham mumkin. Ayrim tilshunoslar Allen Xabbelning **"Ikkilangan inkordan foydalanish ziyoli, ilmi odamlarning nutqidan bundan 300 yil avval yo'q bo'lib ketgan"** degan fikrini ta'kidlaydi [Rahimov, 1978, 26].

Shekspir zamonasida esa bu konstrukstiya ancha ko'zga ko'ringan va keng ko'lamda qo'llanadigan konstrukstiya hisoblangan [Rahimov, 1978, 26]. Bu konstrukstiya (ya'ni bir mikrokontekstda ikki, uch va hatto to'rtta inkorning ishlatilishi), ayniqsa, og'zaki nutqqa ko'proq xos bo'lgan. XIV asrda esa ko'p inkordan foydalanish ziyoli va ma'lumotli odamlar nutqidan asta-sekinlik bilan yo'qola boshladi. Uning asta-sekin yo'qolishiga sabab o'sha davrlarda adabiy til vazifasini o'tagan lotin tili ta'siridir. Hattoki, Stisteron va Stezarning eng emfatik gaplarida ham inkorni ko'p ishlatmaslikka qilgan harakatlari yozuvda bexato yozishga va mukammallikka intiluvchilarga katta saboq bo'lgan. Keyinchalik bir mikrokontekstda ko'p inkordan foydalanish ortiqcha bir holat bo'lib, nutqda bunday narsadan foydalanmaslikka harakat qilina boshlangan. 1770 yildan so'ng paydo bo'lgan yozma yodgorliklardan ko'p inkorli bo'lgan jumalarni topish, ko'p inkordan foydalanganlik holatlarining uchrashi deyarli bir mushkul xodisaga aylandi. XVIII asrda og'zaki nutkda ko'p inkordan foydalanishlikka yozma nutqda inkordan foydalanishga ahamiyat berilganiday e'tibor berilmadi. Natijada mononegativlik ingliz adabiy tilining me'yori (normasi) bo'lib qoldi [Rahimov, 1978, 26-27].

Tillardagi polinegativlik va mononegativlik bu tarixiy jarayon bo'lib, uzoq o'tmishga ega. Tarixiy davrlarda ba'zi bir polinegativ tillarning mononegativ tipga aylanishi uzoq kuzatiladi (ingliz va nemis tillari kabi). Bu jarayon esa o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, tillarning xarakterologik xususiyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Rus, o'zbek va ingliz tillaridan keltirilgan yuqoridagi dalillar shundan dalolat beradiki, mononegativ va polinegativ tillar orasidagi farq u yoki bu tillarning gap bo'laklari orasidagi inkor aloqalarini ifodalovchi inkorning ma'no qirralarida emas, balki insonlar tafakkuriga aloqador muammodir.

Darhaqiqat, mononegativlikning paydo bo'lishiga ikkita sabab ko'rsatish mumkinki, ulardan biri inkor umumlashtiruvchi olmosh va ravishlarning cheklanganligi, ikkinchisi alohida predikativ inkor toifaning ajralib chiqishidir. XVI asrdan boshlab predikativ (ega va kesimdagi) va predikativsiz (ikkinchi darajali bo'lakdagi) inkor vujudga keldi. Qolaversa, bir necha inkor umumlashtiruvchi bo'lakli gaplarda inkorning grammatik ko'rsatkichi predikativ kompleksning bo'laklaridan hisoblanmish ega va kesim tarkibida faqatgina bir marta ishlatilishini taqozo etdi.

Yuqorida biz dunyo tillarida polinegativ toifadan mononegativ toifaga o'tish jarayoni bilan ilmiy va badiiy adabiyotlardagi dalillarga asoslangan holda tanishib, tahlil qilib chiqdik.

Bu jarayon turkiy tillar tarixi, jumladan o'zbek tili tarixidan ma'lumki, bir necha inkor elementlar bir gap tarkibida erkin qo'llangan. Inkor elementlarining o'sha davrlardagi ko'rinishlari turlicha bo'lib, tarixiy taraqqiyot davomida ularning ko'rinishlari o'zgarib borgan. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi **-ma** inkor affiksali qo'shimcha eski o'zbek tilida **-ma**, **-mә** kabi, X-XI asr turkiy tillarda **-ma** ko'rinishda bo'lgan [Abdurahmonov, Shukurov, 1973, 157]. Masalan:

Eski o'zbek tilida: **Men anı bilmemiş-men.**

X-XI asr turkiy tilida: **Ög kechär kishi tojmac, jalinuq og'li menı qalmas. «Zamon o'tar, kishi to'ymas, inson bolasi mangu qolmas»** [Koshg'ariy, 1960, 79].

Hozirgi o'zbek tilidagi **yo'q, emas, na** kabilarga X-XI asr turkiy tilidagi **ab** (**ab bu ab ol-na bu, na u; u ham emas, bu ham emas**), **yo'q** yoki **emas** kabilarga **an** to'g'ri keladi. Masalan, **an-an**, bu «**yo'q-yo'q**» demakdir [Koshg'ariy, 1960, 70, 76].

Biz o'zbek tilidagi har bir gap tarkibida doimo ko'p marotaba inkor elementlar qo'llanadi deb aytish xato bo'lishi mumkin. Chunki bir inkorga ega bo'lgan, ya'ni boshqa inkor elementini o'z tarkibiga olmaydigan gaplar yig'indisi ham mavjuddir.

Ayrim paytlarda o'zbek tilidagi ko'p inkorning qo'llanishi til oshiqchaligiga, ya'ni nutq g'alizligiga olib keladi deb ham ta'kidlaymiz. Lekin gap tarkibida ishlatilayotgan har bir inkor vositasi o'z o'rniga ega. Darhaqiqat, inkor elementlarini vaziyatga qarab ishlatmay ingliz tilidagidek gap tuzilishi hosil qilsak, gapning mantiqiy ma'nosiga putur etishi mumkin.

Masalan, «**Biz endi hech qachon va hech qayerda ilgariidek bo'lolmaymiz**» gapini «**Biz endi allaqachon va allaqayerda birga bo'lolmaymiz**» yoki «**Biz endi qachondir va qaerdadir birga bo'lolmaymiz**» deb aytish, gap ma'nosi mazmunan buziladi. Chunki gumon olmoshlari bilan **-ma** inkor affiksali morfema gapda tugal inkor ma'no anglatmay, balki gap **-ma** inkor affiksali morfemasiz tuzilishga ega bo'lishni talab qiladi. Chunonchi, bu gap «**Biz endi allaqachon va allaqayerda ilgariidek bo'lamiz**» ko'rinishida bo'lishini taqozo etadi.

Shuningdek, bu gapning aynan ingliz tilidagi muqobiliga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, u «**Never again, here or elsewhere will we be the same**» shakliga ega bo'ladi. Birgina **never** inkor ravishining o'zi o'zbek tilidagi **hech qachon** va **hech qayerda** inkor olmoshlari hamda **-ma** inkor affiksali morfemaga to'g'ri kelyapti. O'zbek tilidagi inkor olmoshlar ingliz tilidagi ravishga mos tushmoqda.

Ayrim adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ingliz tilida birlamchi inkorning ishlatilishi XVIII asrdagi til oshiqchaligini (Yazykovaya izbytochnost) olib tashlash harakatining mahsulidir.

Bundan tashqari, tilda ikkilamchi inkor mantiqsizlikni keltirib chiqarishi va gap tarkibida ikkilamchi inkorning ishlatilishi matematik jihatdan ikki manfiyning musbat hosil qilganidek,

bo'lishli ma'no kasb etishi qayd qilinadi va bu grammatik jihatdan qat'iy qonun-qoidaga aylanadi.

Ba'zi hollarda o'zbek tilidagi **hech narsa** inkor olmoshi **bir + narsa** (bir + nima) ko'rinishida tuzilgan qo'shilmalar orqali almashtirilishi mumkin va bu qo'shilmalar ishtirok etgan gaplarning kesimi bo'lishsizlikni ifodalasa, u so'zlar bo'lishsizlik olmoshi vazifasini bajaradi [Abdurahmonov, 1975, 358].

Masalan: **U menga qarab bir nima demadi - hech nima demadi.**

Qolaversa, o'zbek tili tarixiga e'tibor bersak, qadimgi o'zbek tilida ham gap tuzilishi polinegativ qurilishdan iborat bo'lgan [Abdurahmonov, Shukurov, 1973, 113].

Masalan: **Biz bu kun hech et yemeduk. Hech og'lum yoq.**

XI asr manbalariga tayangan holda ham qadimgi turkiy tillarda gaplar polinegativ tuzilishga ega bo'lgan deb aytish mumkin.

Masalan: **ot to'to'nsiz bolmas, jigit jazyqsiz bolmas - o't tutunsiz bo'lmaydi, bola gunohsiz bo'lmaydi** [Koshg'ariy, 1963, 367].

Masalan: **qal'in qulan chufg'asiz bolmas - mollar podasi yo'l boshchisiz bo'lmaydi** [Koshg'ariy, 1960, 400].

Shunday qilib, mononegativlik qadim german tillarida polinegativlikning iste'moldan chiqishi natijasida XVII asrda vujudga kela boshladi va hozirgacha ushbu tillar bir gap tarkibida birlamchi inkorga ega bo'lishi bilan ko'pchilik dunyo tillaridan ajralib turadi. Mononegativ tillarning o'ziga xos xususiyati shundaki, har qanday vaziyatda gap birlamchi inkor vositasiga ega bo'ladi. Agar gapda ravish va olmoshlar ishtirok etib kesim inkor elementi olsa ular gumon olmoshi va bo'lishli ravish, ravish yoki olmosh inkor bo'lsa kesim bo'lishli shaklda bo'ladi. Mabodo mononegativ tillardagi gap ikkilamchi inkorga ega bo'lsa, bu gap, shubhasiz, bo'lishli ma'noli gap hisoblanadi va sof inkor ma'noga ega bo'lgan gap bo'lishi uchun faqat birlamchi inkor bir gap tarkibida ishlatilishi lozim.

Morfologik qurilishi turlicha bo'lgan dunyo tillarida lingvistik kategoriyalarni o'rganish uzoq tarixga ega bo'lsa-da, bu masala asosan XX asrning o'rtalaridan boshlangan, chunki ma'lum bir grammatik tushunchani ifoda qilish vositalari aniq bir tizimga tushmaguncha, bunday muammolarni muqoyasa qilib o'rganish uchun til manbalari etarli darajada bo'lmasligi mumkin. Dunyo tillarining barchasida ham emas, balki ayrimlaridagina, xususan, turkiy va slavyan tillarida mavjud bo'lgan hamda o'z ifoda imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan polinegativlikni yuqoridagi tillarga ko'proq xos xususiyat degan fikr olimlar o'rtasida ustun bo'lib kelgan.

Turkiy tillarda birdan ortiq inkor vositasining ishlatilishi bu tillarning boshqa dunyo tillaridan farq qiluvchi yana bir xususiyatidir. Biz bu bilan polinegativlik faqat turkiy tillar

uchun xos xususiyat demoqchi emasmiz, balki polinegativlikning boshqa dunyo tillariga nisbatan turkiy tillarda ko'p qo'llanish holatlarini ta'kidlamoqchimiz xolos.

Masalan: O'zbekcha: **Senga hech nimadan havotir olma deyapman-ku, Jenni, - derdi senator qiz qaytish taraddudiga tushganda** (Drayzer, 66).

Inglizcha: **"I tell you Jennie", he repeated, as she was leaving, "I do not want you to worry"** (Dreiser, 80).

Biz yuqoridagi misolga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbekcha va inglizcha gaplar semantik jihatdan bir ma'noga ega, lekin morfologik tuzilishi jihatidan (gapda inkorning ishlatilishida) farq qiladi. O'zbek tilida berilgan misolda esa ikkita inkor vositasi qo'llangan va bu gap ingliz tiliga tarjima qilinganda, faqat bitta inkor vosita ishlatilganligining shohidi bo'lamiz.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida bir gap tarkibida bir necha inkor elementlarining ishlatilishi qadimgi davrlardan buyon mavjudki, bu turkiy tillarning polinegativ til toifalari qatoriga azaldan taalluqli ekanligidan dalolat beradi.

Masalan: **arpasiz at ashumas, arqasiz alp cherik sījymas - «arpasiz ot qir osholmaydi, yordamchisiz yigit (baxodir) jangda engi olmaydi»** [Qoshg'ariy, 1960, 144-145].

Qolaversa, hozirgi zamon turkiy tillarida ham bir necha inkor vositalarining bir gap tarkibida qo'llanishini kuzatish mumkin. Yana shu narsani aytib o'tish lozimki, aynan bir xil ma'no kasb etuvchi gaplardagi inkor elementlar ham shu til oilasining qarindosh tillarida turlicha ko'rinishga ega bo'ladi va ularning aynan gapdagi o'rni, so'z formasining funkstional qismi sifatidagi ko'rinishlari bir xil qoidaga asoslanadi. Masalan, boshqird tilidagi inkorni ifodalovchi - **siz, -hoz, -hoz, -hez, -һыз** kabi inkor affiksial morfemalarni **tugel (emas)** ni to'liqsiz fe'l bilan qo'llash mumkin. Masalan: **«һыуһыз yesheu momkin tugul» - suvsiz hayot yo'q - suvsiz yashash mumkin emas** [Russko-bashkirdskiy slovar, 1964, 43]. No'g'ay tilida **yok** bilan **тувыл** ni olishimiz mumkin. Jumladan: **yok, men razы tuvylman - yo'q rozi emasman** [Russko-nogayskiy slovar, 1956, 335]. Qoraqalpoq tilidagi **сыз + emes** ishtirok etgan gap nafaqat bo'lishsiz, balki bo'lishli ma'no kasb etyapti. Masalan, **olsыз kelgen emes** gapi **usiz** (uningsiz) **kelmadi**, ya'ni **u bilan keldi** deb ta'kidlanishi mumkin [Karakalpasko-russkiy slovar, 1958, 131].

Tilda ko'p inkor vositalarining ishlatilishi jarayonida gapning (jumlaning) yanada mayin bo'lishi, shaxsni bir-biriga bo'lgan hurmati ortiqroq bo'lib, gapirishga botina olmagan holatlarda ko'p inkorni ishlatishga moyilligi va bu holat bilan gap ma'nosining bo'lishsizligi emas, balki bo'lishlilik ta'kidlanadi. Masalan:

O'zbekcha: **Bu dam solish Anvarga ham ta'sirsiz qolmadi → ta'sir qildi** (Qodiriy, 48).

Nemischa: 1. **Ich bin nicht unzufrieden → Ich bin zufrieden.**

Inglizcha: **I don't dislike her → I like her**

Qiyoslash jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, otlashgan fe'l formalari bilan uchraydigan "**emas**" yuklamasining ishlatilishi yoki ishlatilmasligiga qarab, turkiy tillar ikki guruhga ajratiladi [Rahimov, 1978, 53]:

Birinchi guruhga o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, xakas, tuva, chuvash kabi tillar kirib, ular "**emas**" yuklamasining turli fonetik variantlaridan foydalanadilar. "**Emas**" ning fonetik variantlari qozoq tilida "**emes**", qirg'iz tilida "**emes**", tuva tilida "**eves**", xakas tilida "**nimes**", chuvash tilida "**mar**" kabilardir.

Ikkinchi til guruhda esa "**emas**" o'rniga "**del**" so'zi turli fonetik variantlarda ishlatiladi. O'zi mustaqil ishlatilmaydigan "**del**" so'zi boshqird, tatar tillarida "**tugel**", no'g'ay tilida "**tuɣɪl**", qo'muq tilida "**tyuyyul**", turk tilida "**değil**", azarbayjon tilida "**deyil**", balkar tilida "**tyuyyul**", gagauz tilida "**di:l**" lar bilan ifodalanadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, turkiy tillarning birinchi guruhida "**emas**" yuklamasi bilan bir qatorda "**tugul**" so'zi ham bir vazifani bajaradi. Gapda inkor ma'nodagi "**tugul**" yuklamasini ishlatish bilan bir qatorda fe'l ham (gapning kesimi) inkor holatda ishlatiladi va bir gapda yana ko'p inkorning «**tugul**» yuklamasi bilan ishlatilishi kuzatiladi. Ammo gapda birdan ortiq inkor vositasi ishlatilsa—da, ma'no bo'lishliga aylanmaydi. Masalan: **Aslida non tugul choy ham tomoqdan o'tadigan gap ham qilmagan edi Dilbar.** (Safarov, 4).

Lekin turkiy tillar oilasining o'zbek tilisida «**tugul**» to'la inkor vositasi deb tan olinmasa—da, uning isboti sifatida turkiy tillar oilasining ayrim tillaridagi «**tugul**» ning variantlari va ularning ma'nolariga nazar tashlasak, uning to'la inkor vositasi sifatida o'zini namoyon etishini ko'rish mumkin. Masalan: qo'muq tilida: **meniki tyugyul - meniki emas.**

Bundan tashqari, «**tugul**» ga aynan o'zbek tilidagi «**emas**» ni ekvivalent sifatida gapda o'rinma-o'rin qo'llasak xato bo'lmasa kerak. Masalan: Turk tilida: **sen değil o - u emas sen.**

Qozoq tilida: **ol emes - u emas.**

Xakas tilida: **Min Xakas nimestin - men xakas emasman.**

Tuva tilida: **ol chaaskaan eves - u yolg'iz emas.**

Turkiy tillar bilan shug'ullanuvchi olimlar «**j'ok**» va «**emes**» ni turkiy tillar uchun universal so'z deb bilishadi [planetadisser.com]. Xuddi shunday fikr D.S. Ahmedov tomonidan ozarbayjon tili materiallarini tadqiq qilishi orqali aytib o'tilgan [planetadisser.com].

A.M. II[erbak esa qadimgi turk tilida qo'llanuvchi fe'l inkor «**bar**» va «**chok**» ning analitik forma bilan birga kelishini «**bu etta jir jok**» (bu go'shtda yog` yo'q) misolida ko'rsatib o'tgan [planetadisser.com].

Tatar tilshunoslari «**yuk**» (yo'q) ni predikativ so'zga tegishli bo'lib, inkorni haqiqiy bo'lmagan holat deb ta'riflashadi [planetadisser.com].

N.A. Baskakov esa «**yo'q**» inkor so'zini qadimdan qoraqalpoq tilida «**djok'**», boshqird tilida «**yuk**», «**tugel**» kabilar orqali ifodalanishini bayon qilgan [planetadisser.com].

Tuvin tilidagi «**chok**» inkor so'zining shaxs-sonda o'zgarishini N.K. Dmitriev quyidagicha ko'rsatadi [Dmitriev, 1948, 58-60].

3.2-jadval

«**chok**» inkor so'zining shaxs-sonda o'zgarishi

Birlik			Ko'plik		
1	Meest chogum	moe otsutstvie	1	Bistıı chog=uvus	nashe otsutstvie
2	Seest chog=ust	Tvoe otsutstvie	2	Silernıı chog=ustar	vashe otsutstvie
3	Oost chog=u	ego otsutstvie	3	Olarnıst chog=u	Ix otsutstvie

Bir mikrokontekstda ikkita inkor elementlarining ishlatilishi inkorning neytrallashuviga, natijada inkor gapning tasdiqqa aylanishiga olib keladi dedik. Ko'plab turkiy tillarda **emas** yuklamasidan tashqari **na** yuklamasi ham ishlatiladi. Bu yuklama o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa inkor yuklamalaridan farqlanadi. **Na** yuklamasining xususiyati shundaki, u gapda takrorlanib, gapdagi uyushiq bo'laklarning har biriga alohida e'tibor qaratadi.

Na yuklamasining yana bir xususiyati uning ikki ya'ni, bog'lovchi va inkor vazifani bajarishligidir. Bu vazifada **na...na** ingliz tilidagi **neither...nor** bilan bir xil deyish qiyin. Chunki turkiy tillarda ishlatiladigan **na...na** yuklamasidan keyin ham inkor vazifa bajarib keladigan til vositalari mavjud. Qiyoslang:

O'zbekcha: **Bu ikkalasidan kechuvchiga esa na podshohning qahri, na jahannamning qa'ri farqsizdir** (Qodiriy, 43).

Yuqoridagi misollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning farqi shundaki, o'zbekcha olingan misollarda fe'l **na...na** inkor so'zidan tashqari inkor **-ma** affiksali morfemasini ham olyapti.

Ko'p holatlarda birgina inglizcha **never** o'zbek, rus tillariga o'girilgan gaplarda ikki inkor elementi vazifasida, ya'ni ham inkor olmosh, ham gap kesimini (ish harakatni) inkor qilib keladi. Lekin inglizcha gap qurilishi jihatidan birgina inkor **never** ga ega bo'ladi, xolos. Masalan: Inglizcha: **If she doesn't begin now she never will know them** (Dreiser, 163).

O'zbekcha: **Hozirdan o'rganib bormasa keyin u hech qachon yod ololmaydi** (Drayzer, 150).

Ruscha: **Esli ona ne nachnet teper, ona nekogda ix ne vnyuchit** (Drayzer, 168).

Ayrim o'rinlarda inglizcha **never** ni o'zbek va rus tillariga mononegativ yoki bitta inkor elementi yordamida tarjima qilish mumkin emasmi degan savol tug'iladi. Bunga binoan inglizcha gaplarni o'zbek, rus tillariga tarjima qilish jarayonida shunday holatlar kuzatiladiki, bunda inglizcha gap tarkibida mavjud bo'lgan **never** ravishi ikki inkor vazifasida (ham inkor olmosh, ham gap kesimini inkor qilish) kelmay, balki bitta vazifada, ya'ni gap kesimini inkor qilib keladi. Masalan: Inglizcha: **I have never experienced the sensation myself** (Dreiser, 198). Ruscha: **-ne dovelos ego ispytat** (Drayzer, 205). O'zbekcha: **Uni sinab ko'rmovdim** (Drayzer, 185).

Polinegativlik va mononegativlik xususiyatiga ega bo'lgan tillar grammatik ma'nolarni ifodalash usuliga qarab emas, balki umumiy va xususiy inkorni ifodalashiga qarab farqlanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, dunyo tillari bir-birlari bilan genetik jihatdan qarindosh bo'lsa ham, bir gap tarkibida birdan ortiq inkor vositalarining ishlatilishiga ko'ra tipologik yaqinlik kasb etishi mumkin. Bunday tillar qatoriga turkiy tillar ham kiradi. Polinegativlik tarixiy taraqqiyotning boshlang'ich davrlarida ham, hozirda ham turkiy va slavyan tillari uchun xos xususiyat bo'lgan deb aytishimiz mumkin. Hind-evropa tillari oilasining yana bir guruhi hisoblanmish eron tillari guruhining tojik tilisida ham polinegativlik xususiyatini kuzatish mumkin. Qolaversa, ikkilamchi inkor ushbu tilda uslubiy maqsadga ko'ra bo'lishli ma'no kasb etadi.

Hind-evropa tillarining aksariyati, chunonchi german tillari guruhi ham o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida polinegativlikni boshdan kechirgan. Ayrim tilshunoslar rus tilidagi ikkilamchi inkorga gap tarkibida bir necha inkor ravishlarning ishlatilishini ta'kidlaydi .

Ingliz va nemis tillarida ikkilamchi inkorning ishlatilishi polinegativlikdan mononegativlikka o'tish jarayoni vaqtida qolib ketgan unsurlardan bo'lishi mumkin. XVI asrga kelib german tillarida polinegativ gaplarning uchta turidan ikkinchi va uchinchi turlari saqlanib qolgan. Qadimgi birinchi turi esa o'z-o'zidan izziz yo'qolgan. Agar qolgan ikki turga nazar tashlasak, ikkinchi tur haqida etarli ma'lumotlar bo'lmaganligi sababli, bu haqda to'la fikr yurita olmaymiz. Lekin XVII asr qo'lyozmalarida polinegativ gaplarning asta-sekin yo'qolishi qayd etilib, 607 ta qadimgi inkor gapga shu davrda faqatgina 11 ta gap to'g'ri kelgan. XVI asr qo'lyozmalarida esa bu ko'rsatkich 2.1 % ga teng keldi. Lekin Lyuter bibliyasida 0,5 % polinegativ gaplar qo'llanilgan . XVII asr qo'lyozmalarida esa, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, polinegativ gaplar qatori kamaya bordi. M. Opistning «Argenis» romanidagi 100 ta inkor gapdan bittasi polinegativ qurilishga ega bo'lgan. Masalan: **Er hatte keine**

auffgelauffene vberhangende Lippen nicht. Bu gapda **nicht** inkor yuklamasi **kein** olmoshi bilan ishlatilgan.

Inkor gapning navbatdagi turi ham o'zining turli xil ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Jumladan, Gyote asarlarida faqat 3 ta ikkilamchi inkor gap umumlashtiruvchi inkor yuklamasi **kein** inkori bilan qo'llanilgan. Ikkilamchi inkor ikkita umumlashtiruvchi olmosh, ravish va inkor yuklama bilan ifodalangan. Shunga ko'ra Gyote asarlarida 5,4 marta **niemand nichts** va bir marta **nirgends nichts** ishlatilganligi qayd etilgan. Undan tashqari, ikkilamchi inkor ikki umumlashtiruvchi olmosh va ravishlar bilan ifodalanib, ularning biri **kein** olmoshi bo'lgan. Masalan, **trank nie keinen Tropfen mehr** gapidagi **kein** olmoshini **ein** ga almashtirib **trank nie einen Tropfen mehr** shaklida inkorni faqat umumlashtiruvchi **nie** ravishi orqali ifodalangan.

Ilk ingliz tili davrida ham bir necha inkor qo'llanilgan gaplar mavjud bo'lgan.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shuni aytib o'tish lozimki, dunyo tillari tipologik nuqtai nazardan bir gap tarkibida inkor vositasining qo'llanishiga qarab ham guruhlashtirilsa bo'lar ekan. Bunga ko'ra turkiy tillar oilasi, hind-evropa tillari oilasining slavyan tillari guruhi, shu jumladan, rus tili inkorning ishlatilish darajasiga ko'ra polinegativ toifali tillarga tegishli bo'ladi. Bu esa, albatta, hozirgi, qolaversa XVII asr oxiridan hisobga olinadi. Chunki tarixiy taraqqiyot davridan deb aytsak, xato bo'ladi. Negaki, bu jahon tillari, shular qatori hozirgi mononegativ til hisoblanmish german tillari tarixida polinegativlik qadimgi va o'rta asrlarda hukmron bo'lgan. Davr o'tishi bilan, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ular boshqa toifali til ko'rinishiga ega bo'lgan.

Lingvistik adabiyotlarning guvohlik berishicha, tarixiy taraqqiyotning boshlang'ich davrlarida polinegativlik bilan xarakterlangan tillar hozirgi paytlarga kelib mononegativ toifali tillarga aylanib ketgan. Jumladan, german tillarida inkorning mononegativ tizimi uzoq tarixga ega. Asosan polinegativ gaplarning tarkibi XIV-XVI asrlarda mononegativ gaplarga aylangan. Bu esa ingliz va nemis tillari iqtisodi davrining boshlanishi va tildagi oshiqchaliklarni iste'moldan tushirish uchun qilingan harakatlarning natijasidir. Bunga bir tomondan lotin tilidan o'tgan fleksiya'ning, ikkinchi tomondan esa lotincha **ne-** ning yo'qolishi ham sababdir.

Ma'lumki, XVII-XVIII asrlarda til nazariyotchilari ingliz tilini bir tartibga sola boshlaydilar. Ingliz tilining grammatikasi yoziladi va ushbu asarlarda tildagi oshiqchaliklar olib tashlanadi. Lekin o'sha davrda ingliz tilidagi bir gapda ko'p ishlatiluvchi inkorning birlamchi inkorga aylanishi haqida ma'lum tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Qolaversa, bu jarayon bevosita davom etgan.

Ilk yuqori german tillari manbalarini kuzatadigan bo'lsak, mononegativlik XIV-XVI asrlarda vujudga kelgan. Hattoki, ayrim tilshunoslarning ta'kidlashicha, eng qadimgi german yozma yodgorliklari sanalmish «Beovulf», «Geliande» asarlarida inkor gaplarning kam

ishlatilganini, asosan birlamchi umumlashtiruvchi inkorning ishlatilishi kuzatilgan. XIX asrdan keyin asosan ingliz va nemis tillarida mononegativ gaplar ishlatiladi.

Lingvistik adabiyotlarda inkor kategoriyasiga bag'ishlangan ham ko'plab ishlar mavjud. Biroq ularga ko'p e'tibor qaratilganligiga qaramay, shu paytgacha etarli darajada uning til tabiatiga tegishli tomonlarini, ayrim hollarda inkor gaplarni ham to'la-to'kis o'rganilib chiqilmagan.

Mononegativ til toifalarini ifodolovchi asosiy xususiyatlardan biri inkor gap tarkibida gapning bo'lishsizligini ifoda etishda, jumladan ingliz tilida bir inkor vositasining ishlatilishi bilan ikkilamchi inkorning ishlatilishiga xojat yo'qligi va turkiy tillarga o'girilganda ikki yoki undan ortiq inkor elementlar orqali namoyon bo'lishligidir. Buni yuqorida keltirilgan misoldan anglab olish mumkin.

Umumlashtiruvchi inkor esa gapda faqat bitta bo'lakni inkor etgan. Ayrim paytlarda fe'lni inkor etuvchi qadimgi **en-** va yangi **noht** teng ravishda ishlatilgan.

Shuningdek, **Men sizsiz bormayman** → **Men siz bilan bormayman** gaplari ma'nosi orasida katta farq bor.

2.2. Mononegativ tillardan polinegativ tillarga va aksincha polinegativ tillardan mononegativ tillarga tarjima qilishning lingvistik asoslari

Polinegativ va mononegativ tillarda tarjima qilish muammolarini yoritishdan avval tarjima jarayoni o'zi nima ekanligini va tarjimaning qanday turlari mavjudligi to'g'risida axborot berishni lozim topdik.

Tarjimaning lingvistik muammolari hozirgi paytda tarjimashunos olimlarning ilmiy asarlarida etarli darajada yoritilgan. Ayniqsa, A.V. Fedorov , Ya.I. Restker, V.G. Gak asarlarida XX asrning 60-80 yillarida tarjimashunoslikka asos solingan.

Keyinchalik tarjimadagi mavjud muammolarni bartaraf etishda L.S. Barxudarov , V.I. Komissarov, V.N. Krupnov , A.D. Shveyster, R.O. Yakobson , J.B. Bo'ronov , K. Jo'raev, G'aybulla Salomov , S. Rahimov va boshqalarning qilgan harakatlari bilan tarjimaning nazariy masalalari atroflicha tahlil etildi. Tillararo kommunikatsiya'ning amalga oshishi barcha millatlar uchun gneseologik asosning mavjudligidadir .

Tarjimaning nazariy muammolarini yoritishda tilshunoslar turlicha fikrga egadirlar. Jumladan, L.S. Barxudarov tarjima nazariyasi bir tildagi nutqiy asarning ikkinchi bir tildagi nutqiy bir asarga o'girish ekanligini aytadi .

Albatta bunda tarjima qilinayotgan asardagi so'zlarning ma'no nozikliklari saqlanishi shart. So'zlarning ma'no nozikliklarini saqlash ham nisbiy tushunchadir. Chunki bir tildan ikkinchi tilga o'girilayotganda biz hohlaymizmi yoki yo'qmi ma'noga ozgina putur etadi. Faqat ana shu putur etkazishni ma'lum me'yorga keltirish muhimligini L.S. Barxudarov alohida uqtirib o'tadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarjimaga tarjimashunoslar, adabiyotchilar, lingvistlar bir tomonlama yondoshmoqdalar. Aslida esa tarjima nizariyasining turli ko'rinishlari mavjud. Jumladan, A.S. Barxudarov tarjimaning yozma - yozma tarjima yoki yozilgan matnning yozma tarjimasi turini ajratadi.

A.V. Fedorov esa xuddi mana shu turda quyidagi tarjima toifalarini ko'rsatadi:

1. Yozma - yozma tarjima:

a) gazetada beriladigan informastiyalarning tarjimasi;

b) hujjatli va maxsus ilmiy matnlarning tarjimalari;

v) ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasi, notiqlik nutqi va publististik matnlar tarjimasi;

g) badiiy adabiyot tarjimasi.

2. Og'zaki tarjima. Tarjimaning bu turi ham ikki xil, ya'ni birin - ketin va sinxron tarjimalar ko'rinishga ega:

3. Yozma - og'zaki tarjima yoki yozma matnning og'zaki tarjimasi.

4. Og'zaki - yozma tarjima yoki og'zaki aytilgan matnning yozma tarjimasi.

A.D. Shveyster tarjimaning boshqacha tasnifini taklif etadi, ya'ni tarjima me'yori-erkin tarjima hamda so'zma-so'z tarjimani ta'kidlaydi.

Funkstional-kommunikativ yo'nalishi bo'yicha tarjima yana badiiy tarjimaga, ijtimoiy-siyosiy va maxsus tarjima turlariga bo'linadi. Xuddi shunday nazar L.K. Latyshev tomonidan ilgari surilmoqda.

Yana tarjimada qanday matn tarjima qilinishiga qarab ham tarjima turlari aniqlanadi. Jumladan, badiiy asarni tarjima qilayotgan mutarjim ana shu tarjimaga mualliflik huquqiga ega bo'ladi. Bu esa tarjimonning professional burchlariga tarjimaning shunday usulini yaratish kerakligini talab qiladiki, uning tarjima qilgan asari boshqa qilingan tarjimalarning mustaqil adabiy-badiiy asar bo'lishi bilan farqlanishi kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, tarjima qilinayotgan badiiy asarning matni tarjimon uchun adabiy mulk bo'lib qoladi.

Hujjatlarning tarjimasiga kelganda esa bitta matnning qayta tarjimasi yuridik nuqtai nazaridan mumkin emas. Chunki qilingan matnning tarjimasi tarjimonga emas, balki ana shu hujjatga qo'l qo'yayotgan shaxsga taalluqli bo'ladi.

So'nggi yillarda xorijiy tillardan turli xil tarjimalar qilinmokda. Bu albatta o'girilayotgan asarning asl mohiyatini va unda tasvirlanayotgan voqealar silsilasini to'laqonli berishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Bilvosita tarjimada esa vositasi til orqali o'girilayotgan badiiy asarda ham lingvistik ham stilistik nuqtai nazardan ko'p narsalar tarjima qilinmay tushirib qoldirilishi mumkin. Bunday paytlarda o'girilayotgan asarning tub mohiyatiga putur etadi. Mualliflar tomonidan olg'a surilayotgan voqealarning dinamik rivoji ochilmay qolishi ham mumkin. Bunday holatni E.L. Voynichning "So'na", Daniel Defoning «Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari», Teodor Drayzerning «Jenni Gerxardt» asarlarining rus tili orqali o'zbek tiliga o'girilgan adekvat variantida ko'plab ko'rish mumkin va aksincha A. Muxtorning o'zbek tilidan rus tili orqali ingliz tiliga o'girilgan "Opa-singillar" romanida ham aynan shu holat takrorlangan. Ishning maqsadidan kelib chiqib, ham bevosita, ham bilvosita ikki tomonlama, ya'ni ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga o'girilgan badiiy asarlar tarjimasidan foydalanildi. Masalan:

1. **G'isht to'shalgan bu xonaning derazasi vo'q** (Muxtor, 7) → **Pol kirpichный, gryazno - бурый. Okon net** (Muxtar, 5) → **The floor was paved with dirty - brown bricks** (Mukhtar, 12) (inkor berilmagan).

2. **Mening masterovoy o'rtoqlarim odam o'ldirishmaydi** (Muxtor, 25) → **Moi tovariichi gorodovyx ne ubivayut** (Muxtar, 21) → **My comrades do not kill policemen** (Mukhtar, 30)

3. **Mana shu voqeadan keyin ertasiga yuzini ko'rpaga o'rab anchagacha o'rnidan turmay yotdi** (Muxtor, 23) → **Na drugoy den Sobir dolgo ne podnimalsya s posteli, lejaj, ukryvshis s golovoy odeyalom** (Muxtar, 19) → **On the next day he stayed in bed for a long time, his blanket pulled over his head, shame and desperation choking him** (Mukhtar, 28) (inkor berilmagan).

Ba'zan esa yuqorida ko'rib o'tganimizning aksi, ya'ni o'zbek, rus tillaridagi tarjima gaplarda inkor berilmaydi, garchi inglizcha gapda inkor vositasi ishtirok etgan bo'lsa-da.

Masalan: **I never dreamed anything like that could happen** (Dreiser, 319) → **Bunaqa bo'lishi kimning hayoliga kelibdi** (Drayzer, 304) → **Kto by mog podumat, chto eto sluchitsya** (Drayzer, 331).

Gap inkor vositalarining polinegativ tillardan mononegativ tillarga o'girilishi borasida borar ekan, eng avvalo, qaysi inkor til vositalari bu lingvistik voqelikni ifoda etish uchun ko'proq uchrashini ham e'tiborga olishni unutmaslik kerak. Aksariyat holatlarda mononegativ til hisoblanmish hind-evropa tillarida, jumladan ingliz, nemis va fransuz tillarida birdan ortiq inkor elementi gap strukturasi ishlatilmasligini olib ko'rsak, shu vosita qaysi til birligi bilan berilishi ayrim hollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilida **never** ravishi tarjima jarayonida

rus va o'zbek tillariga polinegativ inkor vositalariga aylanib ketadi [Rahimov, 1978, 101]: **“Never sick”, said Lester** (Dreiser, 327) → **Ya nikogda ne boleyu-skazal Lester** (Drayzer, 340) → **Men hech kasal bo'lmayman-dedi Lester** (Drayzer, 309).

Yuqorida uch tildan keltirilgan misollar shundan dalolat beradiki, mononegativ tillardagi birgina inkor vositasiga rus va o'zbek tillarida ikkita, ayrim holatlarda hattoki uchtagacha til vositasi to'g'ri kelar ekan. Albatta tilning polinegativ yoki mononegativ toifasi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lmagan tarjimon, ayniqsa, bevosita tarjimoni amalga oshirish jarayonida g'alizlikka yo'l qo'yishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'girilayotgan badiiy asarning mohiyatiga putur etkazadi.

Xuddi shunday holatni T. Drayzerning «Jenni Gerxardt» asarida ko'rish mumkinki, unda eng kamida ikkita inkor elementi bilan tarjima qilinishi kerak bo'lgan **never** ravishi tarjimonlarning no'noqligi, qolaversa, o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqani holda matn mazmuniga putur etkazmasligini hisobga olgani tufayli, bir inkor elementi orqali tarjima qilingan. Masalan:

1. **Never any more** (Dreiser, 308)→**Nikogda ...** (Drayzer, 320)→ **Sira ham qaytmaydi (hech ham qaytmaydi)** (Drayzer, 298).

2. **“I never did feel right about that will business. I never did feel right about that secretary-treashership and some other things that have happened”** (Dreiser, 328) → **-Mne vse eti gody ne davala pokoya ta istoriya s zavemaniem i to, chto ty lishilsya doljnosti sekretarya-kaznacheya lishilsya doljnosti sekretarya-kaznacheya i drugie nedorozumeniya** (Drayzer, 341) → **Menga shuncha yillardan beri o'sha vasiyatnoma voqeasi va xazinachi-sekretarlik vazifasidan ayrilganingu boshqa anglashilmovchiliklar tinchlik bermay keladi** (Drayzer, 310).

Jahon tillarining ko'pchiligida inkor vositalari sintaktik vosita hisoblansa—da, tarjima jarayonida ular, ayniqsa, agglyutinativ til hisoblanmish turkiy tillarga o'girilayotganda, morfologik vositalarga aylanib ketadi. Chunki inkorga o'xshash lingvistik tushunchalarning ifoda vositalari morfologik yarus birliklari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, biz so'z yuritayotgan inkor kategoriyasi ham turkiy tillarda affiksali **ma** morfemasi orqali o'zini namoyon etadi.

Masalan: **I didn't make this offer in any petty spirit though** (Dreiser, 329) → **Biroq bunda maydakashlik qilmaganimni unutmagin** (Drayzer, 311) → **No znay, chto mnoyu rukovodili ne melochnye soobrajeniya** (Drayzer, 340).

Biz yuqorida tarjima jarayonida inkor vositalarining bir tildan ikkinchi bir tilga qay holda o'tishini ko'rib chiqdik. Darhaqiqat, o'zbek tiliga bir necha xorijiy asarlar va aksincha xorijiy tillarga bir necha o'zbekcha asarlar tarjima qilingan. Shulardan biz tahlil sifatida ikki, uch asarlarning o'zbekcha, ruscha va inglizcha variantlari ichidagi inkor vositasi qo'llanilgan gaplarini

imkon qadar chog`ishtirib, inkor vositalarining aynan bir ma'noga teng uch tildagi gaplarda qay tarzda ifodalanishini tadqiq etdik.

Albatta, tarjimon o'z darajasiga etishi va o'z ishini uddalay olishi uchun, hattoki, biz tadqiq qilayotgan inkor vositalarining ham har bir tildagi o'rni, ko'rinishi, ifodasi kabi tomonlarini o'rganishni talab qilar ekan. Shuning uchun ham tarjimonlik-bu og`ir, mashaqqatli kasb hisoblanadi.

XULOSA

Til manbalarining tahlili shundan dalolat beradiki, inkor ko'p qirrali lingvistik hodisa. Pirovard natijalar bizni quyidagi ilmiy mushohadalarga undaydi:

Tadqiqotda inkor kategoriyasining pragmatik va semantik xususiyatlari funkstional tipologik jihatdan tahlil qilindi. Inkorning implistit, eksplistit, kombinastiyalashgan va kombinastiyalashmagan, diktum va modusga asoslangan turlari ajratildi. Inkor kategoriyasining tizimli, strukturaviy, me'yoriy jihatlarini shakllantiruvchi til omillari yordamida polinegativ va mononegativ til toifalari aniqlandi.

Ayni paytda voqelik, hodisa, muayyan jarayonning ob'ektiv borliqda kechishi yoki kechmasligi, sodir bo'lishi yoxud sodir bo'lmasligi qirralarining e'tirofi hamda e'tirof etilmasligi doirasida inkor tushunchasi falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarining diqqat markazidan o'rin olib kelayotganligi ma'lum bo'ldi. Biroq inkor kategoriyasining o'zi lingvistik nuqtai nazardan serqirra ekani bilan ajralib turadi. Til mazmun hamda ifoda planlari o'zaro munosabati doirasida ushbu kategoriya'ning serqirra xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Inkor kategoriyasining yaxlit tushuncha birligini tashkil etishi hamda uni turli yarus birliklari orqali namoyon bo'lishi ushbu kategoriyaning tushuncha, onomasiologik, kontensiv kategoriya deb qarash imkonini berdi. Binobarin, o'zbek tili ichki strukturasi bo'lishsizlik olmoshlari **hech kim, hech qanday, hech nima, hech qaysi, hech qaer, hech qachon, -ma** affiksi, **emas, yo'q** so'zlari, **na...na** yuklamasi va boshqalar ajratildi. Shuningdek, **be-**, **-siz** affikslari ham ular qatoridan joy oldi.

Yuqoridagi tillardan keltirilgan til birliklari paradigmasining xilma-xil ekani inkor ifodasi uchun xizmat qiluvchi til belgilari rang-barangligidan dalolat beradi hamda tillar immanent xususiyatini ifodalaydi.

Inkor kategoriyasi ifodasining nutq sintagmasi kommunikativ yaxlitligi yoki ma'lum tushuncha bilan bog'liqligiga ko'ra umumiy yoxud xususiy inkorni aks ettirib, ularning nutq zanjirida leksik-sintaktik, morfologik vositalar orqali o'z ifodasini topishi bayon etildi. Mazkur ifoda vositalari inkor ma'nosining nutqda ifodalanishiga xizmat qilib monofunkstional va polifunkstional xususiyat kasb etadi. Jumladan, o'zbek tilidagi **-ma** affiksi fe'l tarkibida muntazam ishtirok etib, umuminkor uchun xizmat qiladi va u monofunkstional tavsifga ega.

O'zbek tilidagi «**hech**» formanti **kim, narsa, qanaqa, qaer, qachon, vaqt** kabi formantlar bilan birikib, bo'lishsizlik olmoshi qatorini shakllantiradi. Garchi **hech kim, hech narsa** ma'lum tushuncha, gap bo'lagi inkori bilan bog'liq bo'lsa-da, nutqda umumiy inkorni shakllantiruvchi omilga aylanishi kabi tomonlari ilmiy asoslab berildi.

Xususan, o'zbek tilida bo'lishli olmoshining kommunikastiyadagi ishtiroki, bir tomondan, xususiy va umumiy inkorning shakllanishiga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, ifodada sintezlashgan inkorni yuzaga keltiradi.

Odatda, ifodada inkor sodda va murakkab, sintezlashgan va sintezlashmagan formada namoyon bo'ladi. Ifodada inkor sanjobligi yoki sanjob emasligi gap tarkibida umumiy inkor bilan xususiy inkorning birga kelishi yoki aksincha birga kelmasligi bilan bog'liq. Bu hodisa mononegativ va polinegativ tillarda bir xil sodir bo'ladi. Zero, bu vaziyat tillarning axborot bayonida tejamkorlik hamda sanjoblik tamoyillariga moyilligidan dalolat beradi.

E'tiborga molik tomoni shundaki, polinegativ tillarda umumiy inkorni aks ettirgan gap inkorida polinegativ vositalar ishtirok etsa, alohida tushunchalar bilan bog'liq so'z inkorida mononegativ vositalardan foydalaniladi. Mononegativ tillarda bu holat bir xilda izchil kechadi. Tillardagi inkor sanjobligi yoki tejamkorligi hodisalarini polinegativlik va mononegativlik hodisalari bilan aslo chalkashtirib bo'lmasligi tadqiqot davomida o'z isbotini topdi.

Umumiy va xususiy inkor doirasida simmetrik va asimmetrik ifoda vositalarining ishtiroki mazkur kategoriya ifoda variativligini boyitadi, kengaytiradi. Variativlik ko'lamining kengayishi til ifoda qudratini orttirib, uning ichki me'yori, sathi bilan uzviy bog'lanadi. Bu shuni anglatadiki, variativlik potentsiyasining kengayib borishi har bir tilda o'ziga xos tarzda kechadi.

Tillarda inkor ifodasi variativligi muayyan tipologik tasnifni yuzaga keltiradi. Xususan, ugor-fin tillarida umuminkor ifodasi ikki guruhga tasniflandi: inkor yuklamalari orqali ifodalanuvchi tillar guruhi hamda inkor yordamchi fe'li orqali ifodalanuvchi tillar guruhi. Garchi tillarda axborot xarakteri umumiy va xususiy inkor qo'llanish darajasini belgilasa-da, ammo tillarda inkor turlarining qo'llanishida ma'lum nomutanosiblik kuzatilishi, xususan, polinegativ tillarda mononegativ tillarga nisbatan xususiy inkor ko'p qo'llanishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi.

Ifodada inkorning inkori mazmunini kasb etuvchi ikki karra inkor bo'rttirilgan tasdiq uchun xizmat qilishi tadqiqot davomida asoslab berildi: **Ammo sizni shubhadan chiqaraturg'an hujjatlaringiz albatta yo'q emas edi** (Qodiriy, 342).

Stilistik troplar, xususan, ironiya, stilistik figuralar, xususan ritorik so'roq inkor ifoda vositalari ko'lamini kengaytiradi. Nutqda emostional-ekspressiv bo'yoq, tasavvur bilan uyg'unlik, badiiy mubolag'a, ruhiy hissiyot tuyg'ularini kuchaytirishi dissertastiya'ning asosiy holatlaridan biriga ko'ra tadqiq qilindi.

Umumlashtiruvchi inkor olmoshi va ravishlarning cheklanganligi, alohida predikativ inkor toifaning ajralib chiqishi bu jarayonga ta'sir etdi, shuningdek, ingliz tili strukturasini analitizmga yuz tutishida etakchi omillardan biriga aylandi. Turkiy tillarning diaxronik ildizlarida ham aynan shunday hodisaning ular bilan ham sodir bo'lganining guvohi bo'ldik.

Inkor ifoda vositalarining qo'llanishida funkstional interdependenstiya shakllanadi. Xususan, gapda inkor olmoshlarning qo'llanishi inkor kesim qo'llanishini taqozo etadi. Davr o'tishi bilan funkstional interdependenstiya hodisasi turkiy tillarga yoyildi. Jumladan, boshqird tilida –**siz**, –**hoz**, –**hoz**, –**hez**, –**hыз** affiksial morfemalari «**tugel**» to'liqsiz fe'li bilan qo'llanadi. Qoraqalpoq tilidagi «**сыз** + **emes**», no'g'ay tilidagi «**yok+тувыл**» shular jumlasiga kiradi. Interdependent bog'lanishda «**emas**» etakchi ko'rsatkich hisoblanib, uning qo'llanishi yoki qo'llanmasligi lingvistik tasnif parametri vazifasini o'taydi..

Tillar tipologik xoslashuvini aniqlashda, ularni toifalab tasniflashda tarjima manbalari etakchi o'rin tutadi. Albatta, parallel qiyos transformastion-tarjima orqali qiyos tipologiya uchun muhim. Ayniqsa, transformastion-tarjima qiyosining til uzuslari xususiyatlarini, ifoda me'yori qirralarini, tillardagi so'z tanlash odatlarini ochib berishdagi ahamiyatining beqiyosligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: 2011.
2. Abdurahmonov G`. Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. -312 b.
3. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 558 b.
4. Buranov Dj. Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazykov. – Moskva: Vysshaya shkola, 1983. – 267 s.
5. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. – 283 b.
6. Yoqubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 2005 - 223 b.
7. Jukenova M.N. Otristatelnye predlozheniya v russkom i kazaxskom yazykax: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Alma- Ata, 1968. – 18 s.
8. Jo'raev K. Tarjima san'ati. – Toshkent: Fan, 1982. - 58 b.
9. Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 232 b.
10. Rasulova M.I. Osnovy leksicheskoy kategorizastii v lingvistike. -Tashkent: Fan, 2005. – 270 s.
11. Raximov S. Voprosy strukturno - tipologicheskoy xarakteristiki predlozheniya. – Tashkent: Fan, 1978. - 118 s.
12. Salomov G`. Tarjima nazariyasiga kirish. –Toshkent: Fan, 1978.-179 b.
13. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. - 226 b.
14. Hozirgi o'zbek adabiy tili / Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiev, I. Rasulov, I. Doniyorov. - T.: O'qituvchi, 1980. - 448 b.
15. O'zbek tili grammatikasi / G`.A.Abdurahmonov tahriri ostida / II tomlik. I -tom. – Toshkent: Fan, 1975. – 609 b.
16. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 159 b.

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar

17. Asqad Muxtor. Opa-singillar, - Toshkent: O'zdamnashr, 1958. – 527 b.
18. Askad Muxtar. Sestry. –Tashkent: Yosh gvardiya, 1986. – 347 s.

19. Axmad S. Saylanma. 3 jildlik. J. 1. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1980. – 390 b.
20. Daniel Defo. Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari. - Toshkent: Cho’lpon, 1994. - 224 b.
21. Drayzer T. Jenni Gerxardt.-Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. –343 b.
22. Drayzer T. Djenni Gerxardt. - Tashkent: Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoy literatury UzSSR, 1959. – 316 s.
23. Nurali Qobul. Tubsiz osmon. -T: Adabiyot va san’at, 1981. –246 b.
24. Rahim I. Taqdir. - T.: Adabiyot va san’at, 1977. – 439 b.
25. Safarov N. Qahramonlik qissasi. Asarlar. 4 tomlik. 2-tom. - T.: Adabiyot va san’at, 1975. – 228 b.
26. Xoldor O. Saylanma. III jildlik. Uchinchi jild. T.: Sharq, 2002. - 366 b.
27. To’lipbergen Qaipbergenev. Qoraqalpoqnoma. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1990. – 381 b.
28. Qodiriy A. O’tkan kunlar. - T.: Adabiyot va san’at, 1994. – 400 b.

Foydalanilgan lug’atlar

29. Abdurahmonov G`, Mutalibov S. Devonu lug’otit turk indeks lug’at. – Toshkent: Fan, 1967. – 623 b.
30. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. - M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1966. - 608 s.
31. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. - T.: O’qituvchi, 1985. - 144 b.
32. Hojiev A. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. - Toshkent: O’qituvchi, 1974. - 307 b.
33. Qoshg’ariy M. Turkiy so’zlar devoni. III tomlik. I – tom. T.: - 1960. - 499 b.
34. Qoshg’ariy M. Turkiy so’zlar devoni (Devonu lug’otit turk). III tomlik. II – tom. – T.: O’zSSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. -427 b.
35. Qoshg’ariy M. Turkiy so’zlar devoni. III tomlik. III - tom. – T.: O’zSSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1963. - 460 b.

Foydalanilgan internet ma’lumotlari

36. bezpal-ko.temator.ru
37. disser.com.ua